

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«Himoyaga ruxsat etildi»
Filologiya fakultet dekani, p.f.n,
_____ K.Abdullayev
«__» _____ 2018-y.

5120100-Filologiya va tillarni o`qitish
(o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi
Dexqonova (Nuraliyeva) Madinaninig

Xorazm adabiy muhitida tarixiy asarlar yaratish

an`anasi

mavzusidagi

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi»
O`zbek tili va adabiyoti kafedrası
mudiri

_____ f.f.n. Sh.Abdurahmanov
«__» _____ 2018-y.

BMI rahbari:
dotsent F.Karimova

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
I bob. XVII-XIX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlar	7
1.1. Abulg'ozi Bahodirxonning tarixiy asarlari	7
1.2. Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asari.....	16
II bob. XIX asr I yarmi XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida tarixnavislik an'anasi rivoji	31
2.1. Ogahiyning tarixnavislik faoliyati	31
2.2. Bayoniy - tarixnavislik an'analari davomchisi	46
Xulosa	55
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	58

Soʻz boshi

Mavzuning dolzarbligi. Oʻzbekiston taraqqiyotning yuksak pogʻonalariga koʻtarilayotgan bugungi kunda mamlakatimizning nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki maʼnaviy hayotida ham tub oʻzgarishlar yuz bermoqda. Uzoq tarixga ega boʻlgan madaniyatimiz va adabiyotimiz boyliklarini tiklash, ularni oʻrganish, yanada teranroq tahlil etish adabiyotshunosligimizning ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, «oʻz tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib boʻlmaydi», deb qayta-qayta taʼkidlaydiki, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Bu masalada, yaʼni koʻp asrlik davlatimiz tarixini yaratishda uzoq oʻtmishimiz, tarixiy tomirlarimiz boʻyicha oʻz mustaqil fikrimizga, chuqur ilmiy asosga ega boʻlishimiz shart. «Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa oʻzlikni anglash mumkin emas... Bir soʻz bilan aytganda, davlatimiz, millatimizning haqqoniy ilmiy tarixi keng jamoatchiligimiz uchun gʻoyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim»¹ — deb uqtirgan edi Islom Karimov oʻzining «Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq» asarida.

Binobarin, tarixiy mavzularda yaratilgan asarlarni oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh avlodni ona-yurt va Vatanga chuqur muhabbat ruhida tarbiyalashda tarix kitoblarining oʻrni beqiyosdir.

Maʼlumki, adabiyotimiz tarixining barcha bosqichlarida tarixiy mavzularda asar yozish anʼana tusini olgan. Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam», «Tarixi anbiyo va hukamo» kabi asarlari fikrimizning yorqin dalilidir. Tarix kitoblari yozish XVII-XIX asrlarda ham davom etdi. Biz buni Xorazm adabiy muhiti vakillari misolida yaqqol koʻrishimiz mumkin. Xususan, XVII asrda Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima», XIX asrda Munis va Ogahiyning «Firdavsul-iqbol», Ogahiyning «Riyozi ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jomiʼ ul-voqeoti sultoniy», «Gulshani davlat», «Shohid ul-iqboli Feruzshohiy», XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Bayoniyning «Shajarai

¹ Каримов И.. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. –Б.19.

Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» asarlari yaratildi². Bu asarlar XVII-XX asr boshlaridagi Xorazm tarixini tasvirlashga, ijtimoiy hayot, tarixiy voqea-hodisalarni bayon etishga bagʻishlangan. Mazkur asarlar faktik materillarga boyligi, voqealarni bayon etish uslubi va boshqa jihatlari bilan alohida ajralib turadi. Bu asarlarning yana bir qimmatini shundaki, ularda tarixiy voqealarning bayoni bilan birgalikda madaniy-adabiy hayotga doir xilma-xil qiziqarli maʼlumot va materiallar beriladi. Binobarin, bu asarlar XVII-XX asr boshlari madaniy hayotini, jumladan, adabiy hayotni yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida tilga olingan asarlarni oʻrganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlardagi maʼlumot va materiallarni umumlashtirish Xorazm adabiy muhitidagi tarixiy asarlar yozish anʼanasi xususidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, yurtimiz tarixini, shu davrlardagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy hayot tarzi va mohiyatini teranroq anglashga yordam beradi. Bu tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Oʻzbek adabiyotshunosligida Xorazm adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarni oʻrganish borasida maʼlum ishlar amalga oshirilgan. Xususan, V. Abdullaevning «Oʻzbek adabiyoti tarixi» kitobida, «Oʻzbek adabiyoti tarixi» 5 jildligining 3-jildida Abulgʻozi Bahodirxon hayoti va faoliyati, adabiy merosi, shuningdek, «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» asarlari haqida maʼlumot berilgan³. Q. Munirovning «Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari» nomli kitobida Xorazm adabiy muhitidagi tarixiy asarlar bir muncha tadqiq etilgan⁴. Shuningdek, N. Jumaxoʻja va I. Adizovalarning «Soʻzdin baqoliroq yodgor yoʻqdur» nomli monografiyasida Bayoniyning tarixiy asarlari va ularning ahamiyati xususidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan⁵.

² Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Тошкент: 1994. Мухаммадризо Огахий Асарлар. VI жилдлик. V-VI жилдлар. – Тошкент: 1973. Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол- Тошкент: 2010. Баёний. Шажарай Хоразмшохий. – Тошкент: 1994.

³ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1978.

⁴ Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960.

⁵ .Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995.

N.Shodmonovning «Shohidul-iqbol» – adabiy manba» monografiyasida asar matnshunoslik yoʻnalishida tadqiq etilgan⁶. Shuningdek, mavzu doirasida bir necha maqolalar eʼlon qilingan. Ularda tarixiy asarlarning adabiy qimmatini, til xususiyatlari oʻrganilgan. Lekin Xorazm adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlarni atroflicha oʻrganish, ularning matnlarini toʻla nashr etish hamda mukammal tadqiqotlar yaratish borasidagi ishlar hali nihoyasiga etgan emas.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Biz mavzuni oʻrganish jarayonida quyidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishni rejalashtirdik:

- Xorazm adabiy muhitidagi tarixnavislik anʼanasi xususida fikr yuritish;
- Abulgʻozi Bahodirxon va uning tarix kitoblari haqida maʼlumot berish;
- Munis Xorazmiy va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asariga doir maʼlumotlarni umumlashtirish;
- Muhammadrizo Ogahiyning tarixiy asarlari va ularning Xorazm tarixini oʻrganishdagi ahamiyati borasida fikr yuritish;
- Bayoniyning tarixiy asarlari, xususan, «Shajarai Xorazmshohiy» asari tahlili orqali shoirning tarixnavislik anʼanalari rivojiga qoʻshgan hissasini yoritish;
- mazkur asarlarning nafaqat tarixiy, balki adabiy manba sifatidagi ahamiyatini ham ochib berish;
- shu asosda Xorazm adabiy muhitidagi tarixnavislik anʼanalari rivoji xususida xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv-malakaviy ishida Xorazm adabiy muhitidagi tarixnavislik anʼanalari rivoji xususida fikr yuritilgan. Xususan, Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima», Munis va Ogahiyning «Firdavsul-iqbol», Ogahiyning «Riyozi ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jomiʼ ul-voqeoti sultoniyy», «Gulshani davlat», «Shohid ul-iqboli Feruzshohiy», Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy» asarlari tahlilga tortilgan. Manbalar asosida maʼlumotlar umumlashtirilgan va xulosalar chiqarilgan. Bu ishning nazariy ahamiyatini belgilaydi.

⁶ Шодмонов Н. Шохидул-икбол – адабий манба. Тошкент: Фан, 2009.

Bitiruv – malakaviy ishi natija va xulosalaridan oliygohlarda «O'zbek adabiyoti tarixi» fani bo'yicha o'tkaziladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, maxsus kurslarda, shuningdek, akademik litsey va kollejlarda adabiyot darslarida foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi. Bitiruv – malakaviy ishi so'z boshi, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I bob. XVII-XIX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida yaratilgan tarixiy asarlar

1.1. Abulg'ozii Bahodirxonning tarixiy asarlari

Ma'lumki, o'zbek xalqi uzoq davrlarga borib taqaladigan o'zining boy tarixiga ega. Ayniqsa, Xorazm zaminida eng qadimgi elatlar va xalqlar yashagan hamda qadimiy davlatlar vujudga kelgan. Xorazmning o'z yozuvi, o'ziga xos tili, dini, madaniyati va udumlari bo'lgan.

Bu o'lkada miloddan bir qancha ming yillar avval ovchilik, chorvachilik, sug'orma dehqonchilik vujudga kelgan, yirik sug'orish inshootlari qurilgan, monumental me'morchilik, tasviriy san'at, badiiy hunarmandchilik rivojlangan. Bu qadriyatlar asrlar davomida taraqqiy topib va mukammallashib borgan.

Qadimgi Xorazm insonparvar dinlardan bo'lmish zardushtiylik dinining markazlaridan biri bo'lgan. Jahon ilm-faniga bebaho hissa qo'shgan Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Chag'iniy, Zamahshariy, Kotib Xorazmiy, Al-Hammor, Al-Masihiy, Faxriddin Roziy, Ismoil Jurjoniy kabi qomusiy olimlar etishib chiqqan Xorazmda O'rta Osiyoda birinchi yirik ilmiy muassasa – Ma'mun akademiyasi tashkil topdi. Bu ilm dargohida Sharqning buyuk allomalari ijod qildilar.

Mashhur shoir va tarixchilardan Abulg'ozii Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Komil Xorazmiy, Tabibiy, Jumaniyoz Xivaqiy va boshqalarning nomi xorijiy mamlakatlarda ham hurmat bilan tilga olinadi.

Xorazmning boy va ko'p qirrali tarixi qadim zamonlardan buyon xorijiy va yurtdosh olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib keladi. Xorazm haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi VII-VI asrlarda yozilgan «Avesto»da va Doro I ning Behustun yozuvlarida uchraydi. Mashhur rus sharqshunosi va etnografi S.P.Tolstov tomonidan qayd qilingan «Ar'yana Vayja» – zardushtiylik mamlakati Xorazmning aynan o'zi, deb ta'kidlanadi. Haqiqatan ham, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda xorazmiy va boshqa tillarda gapiruvchi o'troq qabilalarning harbiy siyosiy uyushmasi bo'lgan Xorazm mamlakatida davlatni xorazmiylarning o'zi

boshqargan. Bu uyushma uzoq o'tmishda sharqiy Xurosonni, Hirot va boshqa o'lkalarni o'z tarkibiga olgan.

Bundan tashqari, Xorazmning qadimgi tarixini o'rganishda yunon tarixchilari va geograf olimlari Gerodot, Strabon, Diodor va boshqalarning asarlari muhim ahamiyatga ega. Xorazmning o'rta asrlar tarixini o'rganishda arab va fors tarixchi va geograflarining asarlari, ayniqsa, ulug' bobolarimiz Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abulg'ozzi, Munis, Ogahiy, Tabibiy va Bayoniy asarlari bebaho tarixiy manba hisoblanadi. Ular orasida Abulg'ozzi Bahodirxonning faoliyati hamda tarixiy asarlarining alohida o'rni bor.

Abulg'ozzi 1603 yilda Xeva xoni Arabmuhammad oilasida dunyoga keldi. U bolalik chog'laridanoq toj-taxt talashishlarining jabr-jafosini chekdi. Mansabparast og'alari tomonidan Eronga chetlatildi. Eronda o'n yil nazorat ostida yashagandan keyin o'z vataniga qochib keldi va qattiq kurashlardan so'ng Xeva taxtini egallab, 1645 yildan 1663 yilgacha hukmronlik qildi.

Uning siyosiy faoliyati boshqa hukmdorlarning faoliyatidan keskin farq qilmaydi. Ammo u, sharqshunoslar va tarixchilar qayd qilganidek, Xeva xonligi hokimiyatini mustahkamlashga intildi, o'zaro feodal urushlarga ma'lum darajada chek qo'yish uchun taxtparast og'a-inilariga qarshi kurashdi. Xevaga qo'shni bo'lgan davlatlar bilan aloqani mustahkamlashga intildi. Bularning barchasi ma'lum darajada ijobiy ahamiyatga ega edi.

Abulg'ozzi 1663 yilda o'g'li Anusha Muhammadni o'z o'rniga xon qilib ko'tardi, shundan ko'p o'tmay, u 1664 yilda 61 yoshida vafot etdi.

Abulg'ozzi siyosiy va harbiy ishlar bilangina cheklanib qolmadi. U ilm-fan, san'at va adabiyot bilan ham shug'ullandi; zamonasining etuk tarixchisi bo'lib etishdi. Bu to'g'rida Abulg'ozzining o'zi «Shajarai turk» nomli asarida shunday yozadi: «Bu faqirga Xudoi taolo inoyat qilib ko'p nimarsa bergan turur. Xususan, uch nimarsa bergan turur: avval sipohgarlikning qonun va yo'suni... ikkinchi, masnaviyot va qasoid va g'azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash'orni fahmlamaklik, arabiy, forsiy va turkiy lug'atlarning ma'nosini bilmaklik, uchinchi,

Odam atodan to bu damgacha Arabistonda va Eron va Turonda va Mo'g'ulistonda o'tgan podsholarning otlari va umri va saltanatini kamu ziyodin bilmaklik»⁷.

Abulg'ozini o'z siyosiy faoliyatini davom ettirish bilan birga, adabiy va ilmiy ishlar bilan ham shug'ullanib, asarlar yaratdi, Abulg'ozini meditsina — tibbiyot bilan ham shug'ullanib, «Manofe'ul-inson» («Insonning manfaatlari») nomli risola yozgan. Unda 120 dan ortiq xastalik haqida so'zlab, bu xastaliklarni davolash yo'llarini kitoblardan, jumladan Abu Ali ibn Sinodan o'qib, ustozlardan eshitib olganini qayd etadi. Abulg'ozini qobiliyatli shoir va donishmand muarrix—tarixchi bo'lgan. Abulg'ozining she'riy ijodi ham, uning tarixiy asarlari ham o'z saltanatini mustahkamlash manfaatlariga qaratilgan edi. Lekin, shunga qaramay, uning «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlari Xorazmning, shu bilan birga, turkman va qoraqalpoq xalqlarining, XVI—XVII asrlardagi tarixini o'rganishda muhim manbadir. Xorazmning keyingi asrlardagi tarixini yozgan Munis, Ogahiy va Bayoniylar Abulg'oziga yuqori baho berganlaridek, G.Vamberi va V.Bartold kabi sharqshunoslar ham uning ilmiy faoliyatini yuksak baholaydilar. Masalan, venger sharqshunosi German Vamberi: «Abulg'ozini Bahodirxonning ko'pgina ishlari Bobirni xotirga tushiradi... jahon aning «Shajarai turk» nomidagi tarixiy asari uchun undan minnatdordur»,— degan edi.

Munis ta'biricha, «Bag'oyat ash'orfahm va tarixdon kishi» bo'lgan Abulg'ozining birinchi tarixiy asari «Shajarai tarokima» bo'lib, u hijriy 1071 yilda (melodiy 1660—1661 yillarda) yozilgandir. Abulg'ozining «Shajarai tarokima» asarining yaratilish sababi haqida yozgan quyidagi so'zlari diqqatga sazovordir: «Turkmaning mullolari va shayxlari va beklari mening tarixni yaxshi bilurimni eshitib tururlar, taqi bir kun barchalari kelib arz qildilarkim, bizning ichimizda «O'g'uznoma» ko'p turur. Ammo hech yaxshisi yo'q. Borchasi g'alat va birisi-birisiga muvofiq emas, har qaysisi bir turluk va bir durust e'tibor qilg'udek tarix bo'lsa erdi, yaxshi bo'lur erdi, deb o'tun qildilar. Ersa onlarning o'tunlarini qabul

⁷ Абулғози Баҳодирхон. Шажарай турк. – Тошкент: 1994. – Б.12 .

qildim. Taqi kitobni aytmoqqa rujo“ qilduk. Taqi bu kitobga «Shajarai tarokima» ot qo‘yduk... Oncha bilg‘onimizni bir-bir etoling, bilmag‘onimizga iloj ne»⁸.

Abulg‘ozi bu asariga turkman xalqi tarixiga oid tarixiy manba va rivoyatlarni ham, afsona va hikoyatlarni ham iloji boricha kiritishga intilgan. «Shajarai tarokima»ning muallifi o‘z asarini sodda, ommabop stil va tilda yozishga alohida e‘tibor bergan. Buni uning o‘zi ham alohida ta‘kidlab, shunday yozgan edi: «Barcha bilishkim, bizdan burun turkiy tarix aytqonlar arabiy lug‘atlarni qo‘shib tururlar va forsiyni ham qo‘shib tururlar va turkiyni ham saj‘ qilib tururlar. O‘zlarining hunarlari va ustozliklarini xalqqa ma‘lum qilmoq uchun. Biz munlarning hech qaysisini qilmaduk, aning uchun kim bu kitobni o‘qug‘uchi va tinglag‘uchi albatta turk bo‘lg‘usi turur: bas, turklarga turkona aytmoq kerak, to ularning barchasi fahm qilg‘aylar».

Abulg‘ozining fikrlari, uning «turkona aytmoqqa» harakat qilishi keyingi tarixiy asarida ham o‘z ifodasini topgan. Bu esa Abulg‘ozining bevosita jonli tilga murojaat etgani va o‘z asarlarini yozayotg‘anida «andoq aytmoq kerakkim, yaxshi va yomon borchalari bilib, ko‘ngullariga ma‘qul bo‘lg‘oy» degan prinsipga amal qilishga uringanini ko‘rsatadi. SHu bilan birga, Abulg‘ozi «Shajarai tarokima» asarida turkman xalqi tomonidan ijod qilingan ko‘pgina rivoyat va hikoyatlarni, xususan afsonaviy O‘g‘uz, Dada Ko‘rqut haqidagi ertak va dostonlarni yaxshi bilgan kishi sifatida ko‘zga tashlanib turadi. Bu esa «Shajarai tarokima» asarining adabiy qiymatini yanada oshiradi.

«Shajarai tarokima» turkman xalqi tarixini o‘rganishda muhim bir manba sifatida ahamiyatlidir. Shuning uchun ham akademik V.Bartold bu asarni turkman xalqi tarixiga bag‘ishlangan maxsus kitob sifatida ta‘riflagan va ayni chog‘da undan ehtiyotkorlik bilan foydalanish keraklig‘ini ham ta‘kidlab o‘tgan edi. Chunki «Shajarai tarokima»da tarixiy ma‘lumotlar bilan birga, afsona, rivoyat va hikoyatlar ham mavjud bo‘lib, ba‘zi hollarda tarixiy haqiqat bilan afsona qorishib, aralashib ketgan edi.

⁸Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.29.

Abulgʻozining ikkinchi tarixiy asari «Shajarai turk» boʻlib, muallif uni yozib tugatishga ulgurmay vafot etgan edi. Anusha Muhammad otasi oʻlimidan keyin «Shajarai turk» asarini yozib tugatishni Mahmud binni Mullo Muhammad Zamon Urganjiyga buyuradi.

Abulgʻozi «Shajarai turk» asarida oʻz dinastiyasining shajarasini, hukmdorlarning silsilasini tarixiy voqealar va koʻpincha, afsona va rivoyatlar fonida yoritadi. «Shajarai turk» asari toʻqqiz bobdan iboratdir. 1—2- bob, sharq tarixchilari anʼanalariga muvofiq, Odam atodan boshlab, Chingizxonacha boʻlgan voqealar bayoniga; 3—4—5-boblar Chingizxon va uning Chigʻatoy, Toʻli nomli oʻgʻillari hamda ularning bolalarining Movarounnahr, Moʻgʻuliston, Eron va Qashqardagi hukmronchiliklari bayoniga bagʻishlanadi; 7—8- boblarda esa Joʻji bolalarining Dashti Qipchoqdagi hokimiyati tasvirlanadi. Toʻqqizinchi bobda XVI asrdan XVII asrning ikkinchi yarmi (60- yillar)ga qadar boʻlgan Xorazm tarixiga doir voqealar naql va rivoyatlarga yaqin bir uslubda hikoya qilinadi. «Shajarai turk»ning 1—8- boblari boshqa kitoblardan yigʻib olib yozilgan boʻlsa ham, uning 9- bobi oʻzining originalligi va tarixiy voqealarning bevosita shohidi boʻlmish kishi tomonidan yozilganligi tufayli oʻsha davr tarixini oʻrganishda muhim manbalardan biridir. Shuning uchun ham Xorazm tarixini yozgan XIX asr mualliflari Munis, Ogahiy va Bayoniy hamda Xorazm va Oʻrta Osiyo tarixini oʻrgangan sharqshunoslar V.Bartold, G.Vamberi, N.Veselovskiy, A.Yakubovskiy, Ya.Gʻulomov va boshqalar Abulgʻozining «Shajarai turk» asaridan foydalandilar.

Abulgʻozi «Shajarai turk»da oʻz ota-bobolarining hukmronligi davridagi tarixiy voqealar biror tarixiy kitobda bitilmaganidan afsuslanadi: «Bizning ota-aqalarimizning beparvoliqi va Xorazm xalqining bevuqufliqi, bu ikki sababdan bizning jamoatimizni Abdullaxonning otalari birlan otalarimizning ayrilgʻon to bizga kelgancha tarixlarini bitmay erdilar»⁹. Demak, Abulgʻozi oʻz sulolasining tarixini yaratmoqchi va shu orqali uni yanada mustahkamlash uchun kurashmoqchi boʻlgan. Binobarin, muallif asarda oʻzidan ilgari oʻtgan hokimlarga ana shu nuqtai

⁹ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: 1994. – Б.11 .

nazardan yondashadi, ularning xulq-atvori, siyosati va xatti-harakatlarini tasvirlab, ba'zilarini maqtaydi va ulardan ibrat olishga chaqiradi (Jaloliddin, Temur Malik, Ali Sulton, Qurbon hoji kabilar), ba'zilarini esa tanqid qiladi, hajv ostiga oladi (Sevinchxon, Berdibek, Habash, Elbors kabilar).

«Shajarai turk»ning muallifi o'zining asarini sodda va ommabop tilda yozish haqida «Shajarai tarokima»da bayon etgan fikrlarini davom ettiradi. U «Shajarai turk»ni «... turkiy tili bilan aytdum. Turkiyni ham andoq aytubmankim, besh yoshar o'g'lon tushinur»¹⁰, deydi. Asarning kompozitsion tuzilishida ham Abulg'ozni bayondagi ixchamlikka, ifodaning izchilligiga va voqealarni latifa va rivoya uslubida sodda va jozibali qilib bayon etishga e'tibor bergan. Ba'zan esa muallif, voqealar bayonida turli peyzajlarni tasvirlab, jonli manzaralar yaratadi. Shu bilan birga, u ora-oraga o'z sarguzashtlarini qistirib o'tadi. Bu xususiyatlar «Shajarai turk»ni esdaliklar tipidagi memuar asarlarga, jumladan «Bobirnoma»ga yaqinlashtiradi.

Abulg'ozni o'z asarining keng tarqalishini ta'minlash va ta'sir kuchini oshirish maqsadida maqol va ertaklardan ijodiy foydalanadi, badiiy tasvir vositalarini ishlatadi. Bularning hammasi «Shajarai turk»ning ma'rifiy ahamiyatini oshiradi, sodda jumalarda harorat bilan tasvirlangan voqea va xotiralar kishini o'ziga maftun etadi. Masalan, 1622 yilda Xevada ko'tarilgan amaldorlar fitnasi va unga qarshi kurash oqibatini Abulg'ozni quyidagicha eslaydi: «Asfandiyorni so'l va faqirni o'ng qilib erdilar. Ulug' urush bo'ldi. Faqir uch ot yiqilg'uncha urushtum. Barcha xalqdin so'ng ketdum. Qatimda olti kishi bo'ldi. Keyinimdan jov ko'p etdi. Qaytib urushtuk. Ul qirq kishi jov ko'tarila ot soldi, taqi aralasha qoldi... o'zga kishilarimizning har qaysisi har tarafga ketti... Jov qolmay ot qulab kela yurub erdi. Birisi o'q birla og'zimga urdi, egnag'imning suyaklari pora-pora bo'ldi. Og'zim to'la qon bo'ldi. Bir ulug' yilg'inni o'rquldum, jovni ko'zi mani ko'rmay o'zga kishiga tushdi. Shu vaqtda otimning ayoqi sichqonning iniga kirib, andoq yiqildikim, ottin to'rt-besh qadam yiroq borib tushtum. Ot turdi, taqi g'ovg'odin

¹⁰ Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б.30.

qochti, yuriyverdi. Qatimdagi kishi manga otini berib o‘zi qoldi. Yosh o‘g‘lon yakka borur erdim»¹¹.

Bu parchada fitnani bostirishga qatnashgan Abulg‘ozining holati, kayfiyati ko‘z o‘ngimizda gavdalanadigan darajada jonli ishonarli qilib tasvirlangan.

Tabiat manzaralarini, jang lavhalarini, qilich tovushi, otning dukurlashi va kishilarning hayqirig‘ini tasvirlaganda ishlatilgan so‘zlar ham, badiiy ifoda uslubi ham kitobxonni zavqlantiradi. Asarda kishilarning xulq-atvori ham ixcham, sodda va ravshan aks ettirilgan. Masalan: «Oning oti Jonibek, ul ham beaql kishi erdi, oning o‘g‘li Iskandarxon, ul ham kam aql kishi erdi». Avanihxonning Mahmud Sulton nomli o‘g‘li haqida esa bunday deyiladi: «Ikkinchi o‘g‘lining oti Mahmud edi. Oni sari Mahmud Sulton derlar erdi. Benihoya tentak va g‘ayratsiz va nomussiz va qo‘rqoq kishi erdi».

«Shajarai turk» nasrda yozilgan bo‘lsa ham, unda ba‘zi o‘rinlarda biror voqea munosabati bilan bayt va misralar keltiriladi. Asarda ayrim maqollar ham uchraydi. Masalan: «O‘ksuk o‘z kindigin o‘zi kesar», «Otang evin yov chopsa, birga chop», «O‘n darvesh bir palos ustig‘a sig‘ar, ikki podshoh jahonga sig‘mas», «It semirsa egasin qopar» va boshqalar. «Shajarai turk»da saj priyomida yozilgan jumlar ham bor. Masalan: «Menglixon taqi bir necha yillar et *eb*, qimiz *ichib*,... oyday, kunday suluvlarni *quchib*, simobday yo‘rg‘alarni *minib*, ko‘ngli tegan erlarga *uchib*, ul dunyog‘a ketdi»; «O‘rduxon podshoh *bo‘lib*, bir necha yillar araq va qimiz *ichib*, xitoy kimxobni *pichib*, suluvlarni *quchib*, otasi keyinidin ketti» kabilar.

«Shajarayi turk» leksikasining o‘ziga xosligi va bir necha jihatdan eski o‘zbek tili lug‘atlarini to‘ldira olishidadir. Eng avvalo, qo‘llangan so‘zlarning qator yangi ma‘nolari e‘tiborimizni tortadi. Misol uchun, Buxoro so‘zini olib ko‘raylik. Abulg‘oziy Bahodirxon hammaga ma‘lum toponim Buxoro so‘zining yangi ma‘nosini - so‘g‘dcha «olimlar to‘planadigan joy" degan ma‘nosini qayd etadi va shunday yozadi: «Xoni kishvarsitonning o‘zi Tuluyxon bilan kelgan lashkarni olib,

¹¹ Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Toshkent: 1994. – B.168 .

Buxoro tarafiga yurudi. Buxoro temakning ma'nosi mo'g' tilinda ilm va ahli ilmning jam' bo'laturg'on eri temak bo'lur»¹².

Ma'lumki, ko'p tilshunoslar Buxoro toponimi etimologiyasini sanskritcha buhor// buhopu-- o'quv maskani yoki ziyoratgoh, ibodatxona kabi so'zlar bilan bog'laydilar. Mo'g' tilini bilgan Abulg'oziyxonning bu qaydi alohida diqqatga sazovor. Zero, «madaniy maskan " ma'nosi tarixchilar sharhi bilan uyg'un.

Ma'lumki, peyzaj asar qahramonlarining faoliyat maydonini, ularning xarakterini, insoniy xususiyatlarini ochishda o'ziga xos fon bo'lib xizmat qiladi. Uning ana shu xususiyatini anglagan Abulg'oz Bahodirxon «Shajarai turk» asarida qahramonlari taqdiri va faoliyatini yoritishda ular ruhiyatiga mos tasvirlar yaratadi. Masalan, Berka Sultonning fojiali o'limi sovuq qish kuni fonida beriladi: «... Sulton (Berkaxon) o'rduda yalang'och yotib erdi, ot oyoqining ovozi keldi. Yalangoyoq kishi po'stinini orqasina solib, yugurub tashqari chiqti. Ko'rdi ersa yovturur. Evi to'qayning ichinda erdi. Eshikning oldinda qamishli ulug' ko'l bor erdi. Kun sovuq erdi. Qamishning ichina yugura berdi. Buznung ustunda bora yurganda oyoqina qamishning cho'giri urdi. Taqi yordi. Qoni hech to'qtamadi. Qoling qamishning ichina bordi. Taki oyoqini po'stin etakina chirmab o'lturdi. SHohbaxton qochg'anlarni bir-bir tutib, Berkani izlab va so'rab yuriy erdi. ... Ul kechasi bir barmoqcha kor yog'ib erdi. Bir kishi ovulning chetinda bir yalang oyoqning izin olib, izlab bora erdi. Ko'lga kirgandin so'ng ul kishining oyoqindin buzning ustunga qizil qon oqaberdi. Qonni iz oralab keldi ersa, bir odami kishi kaling qamishning ichinda o'lgurub turur. Muni ko'rdi... Besh-o'n kishi yig'ilib, tutub Shohbaxton oldig'a olib bordilar. Shul zamon Sultonni shahid qilib, evin chovub va talab qaytib eviga ketdi»¹³.

Shohbaxton Berka Sultonni shahid qilishi tasvirlangan bu sahifada muallif o'z qahramonining umri poyoniga etayotganligi, hayoti va shohlik faoliyati tugab borayotganligini bayon etishda tabiat tasvirini zo'r mahorat bilan chizadi. Muallif

¹² Абулғози Баҳодирхон. Шажараи турк. – Тошкент: 1994. – Б.185 .

¹³ Ўша асар. – Б.73.

qahramon fojiasini qish fasli, qattiq sovuq kunida, yalang'och va yalangoyoq yurganda, oppoq qor, qamishlari qalin va kuyuq ko'l manzarasi fonida tasvirlaydi. Berkaxonning fojiali o'limn tasvirini o'qigan kitobxon muallifning peyzaj tasvirini chizishdagi mahoratiga qoyil qoladi. Tasvirda Berkaxonning oyog'idan oppoq qorga oqqan qip-qizil qon voqea mohiyatini ochishda ma'lum bir detal vazifasini o'taydi.

Abulg'ozii o'zi yashagan davr voqealari tasvirigacha uchraydigan peyzaj chizgilarini badiiy-bo'yoqdor to'qimalar bilan tasvirlaydi, o'z davri voqealari bayonida keltirilgan peyzaj lavhalari esa o'ziga xos realistik mohiyat kasb etadi. Chunonchi, otasi (Arabmuhammad) bilan bog'liq voqealarni bayon qilishda ajoyib tabiat manzarasini chizadi: «Ul vaqtda Mazdehkon qal'asindin to Baqirg'anning beri yuzi Qo'yg'un tegan ergacha bug'doy ekilur erdi. Bizning Xon Tuk qal'asining yuqorisindin bir ariq qazdurub tururlar, faqir dunyog'a kelmasdin bir yil burun. Mezon bo'lg'onda saqasini ko'marlar erdi. Bug'doyni o'rg'on vaqtda ocharlar erdi Bir necha yildin so'ng ariqning kengligi otqan o'q o'tmasday bo'ldi Suvning oyoqi Quyg'un bordi. Andin Achi tengiziga bordi. Yolg'uz bug'doy ekilur erdi. Otli kishi o'n kunda bug'doyning toshindin aylanib kela bilmas erdi». Bu tasvir orqali XVI asr oxiri - XVII asr boshlarida Xorazmdagi dehqonchilik, bug'doyning ko'p bo'lganligi haqida tasavvurga ega bo'lamiz. Tasvirni o'qib, oxiri ko'rinmagan ko'm-ko'k bug'doyzorni, bir o'q otimiga teng keladigan katta suv kanalini ko'z oldimizga keltiramiz. Juda sodda ranglar (so'zlar) bilan chizilgan bu peyzaj asarga o'ziga xos joziba baxsh etgan.

Abulg'ozii o'zini birinchi tarixiy asari bo'lgan «Shajarai tarokima»da saj usulini qo'llamaganini uqtirgan bo'lsa ham, lekin u tarixiy solnomalarning an'analari, ulardagi «musajja'» «murajjaz», «ori»lar hamda xalq og'zaki ijodiyotining ta'siri natijasida o'zining «Shajarai turk» asarida joy joyi bilan beixtiyor saj usulini ishlatadiki, bu hol asarning ravonligini va musiqiyiligini oshirishga yordam bergan.

Shunday qilib, «Shajarai tarokima» va «Shajarai turk» asarlarini yaratgan Abulg'ozii o'rta asr tarixchiligiga o'z hissasini qo'shgan XVII asrning bilimdon

siymolaridan biridir. Agar uning tibbiyotga, doir «Manofe’ul-inson» risolasi va o’zining «bag’oyat ash’orfahm»ligi ham e’tiborga olinsa, Abulg’ozining o’z davri-ning keng bilimli kishisi bo’lganligi yaqqol namoyon bo’ladi.

1.2. Munis va Ogahiyning «Firdavs ul-iqbol» asari

O’zbek tilida tarixiy asarlar yozish an’anasi O’rta Osiyo xonliklaridan Xeva xonligida keng ko’lamda davom ettirildi. Abulg’ozi Bahodirxon boshlagan ishni XIX asrda atoqli o’zbek shoirlari va mashhur tarixnavislari Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdilar. Bu buyuk olim va tarixnavislar Xorazm tarixini yozish bilan bir qatorda, shu sohada ma’lum maktab ham yaratdilar. Bularning ishini XIX asr va XX asrning boshlarida yashagan taniqti tarixnavis olim va shoir Muhammad Yusuf Bayoniy davom ettirdi. Bu tarixnavislik maktabi namoyandalari faqat Xorazm tarixiga oid asarlar yozish bilan cheklanib qolmay, ko’pgina tarixiy asarlarni boshqa sharq tillaridan o’zbek tiliga tarjima qildilar. Shu bilan bir vaqtda, ular tomonidan ko’pgina adabiy asarlar ham ijod qilindi va tarjima etildi.

Xeva xoni va tarixnavis olim Abulg’ozi Bahodirxon «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» nomli tarixiy asarlarning muallifidir. U o’z davrining davlat arbobi, lashkarboshisi va atoqli tarixnavisi bo’lish bilan bir qatorda, tib ilmini yaxshi bilgan va bu borada «Manofe’ul-inson» nomli asar ham ta’lif etgan. Abulg’ozidan Munisgacha bo’lgan bir asrdan ko’proq davr Xorazm hayotida anchagina notinch davr bo’lib, Munisgacha bu davr tarixi yozilmagan edi. Shunday ahvolga qaramay, XVIII asrda Xorazmda Vafoiy, Ravnaq, Andalib, Roqim, Nishotiy, Umar Boqiy, Muhammad Xokisor, Mavlono Kiromiy kabi ajoyib shoir va adiblar ijod etganlar.

XVIII asrning oxirgi choragi va XIX asr Xorazm tarixnavisligida alohida o’rinni egallaydi. Chunki bu davrda atoqli tarixnavis olim va shoir, davlat arbobi, o’zining butun faoliyati bilan Xorazmda madaniy yuksalishga homiylik qilgan Shermuhammad Munis ibn Amir Avazbiy mirob va uning jiyani Muhammadrizo

Ogahiy ibn Erniyozbeklar bu borada qalam tebratdilar va qator tarixiy hamda adabiy asarlar ijod etdilar.

Ulardan biri Munis tarafidan ta'lif etilgan va Ogahiy tomonidan yozib tamomlangan Xorazm tarixini qadim zamonlardan 1825 yilgacha bayon etuvchi «Firdavs ul-iqbol» nomli asardir. Shermuhammad Munis iste'dodli shoir, mohir tarjimon, tarixnavis va davlat arbobi bo'lgan. U mashhur Sharq tarixchilaridan hisoblangan Muhammad Mirxondning «Ravzat us-safo» asarini fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishga kirishib, 1-jildini va 2-jildining birinchi yarmini tugallashga ulguradi, xolos. Keyinchalik bu xayrli ishni Ogahiy va boshqa ijodkorlar davom ettiradilar.

O'rta Osiyo, shu jumladan, Xorazm tarixining bebaho asari hisoblangan «Firdavs ul-iqbol» jahonning mashhur olimlari tomonidan juda yuqori baholangan. Bu asarning yaratilish tarixi haqida Ogahiy quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: Eltuzarxon Munisni huzuriga chorlab, unga Xorazm tarixini yozishni topshiradi. Munis o'z asarini Sherg'ozixon davrigacha yozib etkazganda Eltuzarxon vafot etadi. Undan so'ng davlat tepasiga uning birodari Muhammad Rahimxon I keladi. Muhammad Rahimxon I Munisga o'z asarini davom ettirishni buyuradi. Munis asarni davom ettirarkan, Muhammad Rahimxon I hukmronligining ettinchi yilida sodir bo'lgan voqealarni yozib tamomlaganda, xon Munisga Mirxondning mashhur «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini o'zbek tiliga tarjima qilib, ikkinchisini davom ettirayotganda Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Muhammad Rahimxonning o'rniga o'g'li Olloqulixon o'tiradi. U ham Munisga mazkur asarni tarjima qilishni buyuradi. Biroq Munis 2-kitobni oxiriga etkaza olmay 1244/1829 yili vafot etadi. Olloqulixon taxtga o'tirgandan so'ng u 1255/1839-1840 yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan amakivachchasi Muhammadrizo Ogahiyi chaqirib, 1813 yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan «Firdavs ul-iqbol» asarini davom ettirishni buyuradi. Ogahiy 1813 yildan boshlab Xorazmda sodir bo'lgan voqealarni yozishga kirishadi. Bu haqda u shunday yozadi: «Bu bandai bebizoat, Muhammadrizo

mirob, al-mutaxallis bil-Ogahiy ibn Erniyozbek birodarzodai va dastparvardai Munis mirobkim, Olloqulixon bu nusxai parishon avroqkim, tarkibidin ko'ngul mutahayyirdur, jam' qilib, itmomg'a etkurmakni buyurib, bu amrg'a ixtisos topdim. Bo'ysunib qulluq qilmoqdin o'zga chora topmadim. Ma'lumi xotiri ashrof bo'lsinkim, Muhammad Rahimxonning julusi humoyunining sakkizinchi yilidan to hangomi vafotigacha vuqu' topg'on barcha futuhot va voqeotdin ba'zining tajassus bila nusxasi topilib va ba'zini taraddud bila noqillar tilidan eshitib, ijmol tariqasi bila raqam silkiga chekilgusidur»¹⁴.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Muhammad Rahimxon I hukmronligining sakkizinchi yilidan (1228/1813) keyingi davrda sodir bo'lgan voqealar Ogahiy tarafidan yozilganligi aniqlanadi. Buni Bayoniy ham o'zining «Shajarayi Xorazmshohiy» asarining muqaddimasida qayd qiladi.

Munis va Ogahiylarning bu asaridan bir necha nusxa Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida va shuningdek, bir necha nusxa O'zR Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

Xorazm tarixnavislari Munis va Ogahiyning Xiva xonligida yashagan o'zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq, fors va boshqa xalqlarning ijtimoiy hayoti, Xiva xonligining Buxoro, Qo'qon, Eron, Xuroson podsholiklari bilan bo'lgan munosabatlari, o'zaro urushlar, Rossiya bilan savdo-sotiq munosabatlari, xon va beklar jabr-zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonlari, xalqlarning urf-odatlar, urushlar natijasida Eron va Xurosondan Xorazmga ko'chirilgan forsiyzabon aholi haqida ham keng ma'lumotlar berilgan. Mashhur rus sharqshunos olimi, akademik V.V.Bartold XIX asr o'zbek tarixchilarining asarlariga katta baho berib, shunday deb yozgan edi: «Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlarning qanchalik kamchiliklari bo'lmasin, tarixiy voqealarning bayon etilishi va ularda keltirilgan faktik materiallarning ko'pligi jihatidan Qo'qon va Buxoro xonlari tarixiga doir bizgacha etib kelgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada

¹⁴ Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – B.278.

qoldiradi». Akademik V.V.Bartold va prof.P.P.Ivanovning fikricha, Munis va Ogahiy asarlari XVIII – XIX asrlardagi Xiva xonligi tarixi bo‘yicha asosiy manba bo‘lib qoladi. Ma‘naviy tiklanish dolzarb masala hisoblangan bugungi kunda ajdodlarimizning durdonalarini tadqiq etish, shu yo‘l bilan milliy o‘zlikni, qadriyat, urf-odat va an‘analarimizni tiklash, xalqimizga qaytarish zaruriyati tarixnavisligimiz va adabiyotshunosligimiz oldiga bir qator dolzarb vazifalarni qo‘yadi.

Ma‘rifiylik va ma‘naviylikning ana shunday ildizlaridan biri Munis va Ogahiyning Xorazm tarixiga bag‘ishlangan «Firdavs ul-iqbol» asaridir. Asar ilm olamida hali to‘la o‘rganilmagan. Qo‘lyozmaning asl nusxasi Rossiya Fanlar akademiyasiga qarashli Sankt-Peterburg Qo‘lyozmalar institutida saqlanmoqda.

1988 yilda amerikalik sharqshunos, xorazmshunos olim YU.Bregel shu nusxa asosida «Firdavs ul-iqbol»ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi. Manbaning bebaho mazmuni bilan tanishgan YU.Bregel jahon ziyolilarini asarning mohiyatidan bahramand qilish uchun inglizcha tarjimini ham amalga oshirib, 1998 yilda nashr ettirdi.

Xorazm tarixnavisligi qadimiy ildizlarga ega. Bu ko‘hna zaminda xorazmshoxlar davrida rivojlangan tarixnavislik yaqin o‘tmishgacha davom etib keldi. Tarixnavislar orasida Munis va Ogahiyalar alohida ko‘zga tashlanib turadi. Ular tomonidan yozilgan «Firdavs ul-iqbol» asari tarix ilmining noyob mahsulidir. Kitob muqaddimadan tashqari, beshta bob, besh qism, ikki faslga bo‘lingan. Oxirgi qism Muhammad Rahimxon I hukmdorligi davriga bag‘ishlangan bo‘lib, 20 yillik muddatning har yilidagi voqealar alohida bayon etilgan. Xorazm tarixnavisligiga xos eng asosiy xususiyatlardan biri voqealarning badiiy-estetik ruhda bayon qilinganligidir. Ana shu an‘anaga ko‘ra tarixnavislar matnga ko‘plab she‘riy parchalarni kiritganlar.

«Firdavs ul-iqbol»da ham ko‘plab masnaviy, bayt, ruboiy, qit‘a, fard kabi lirik janrlardan foydalanilgan. Ushbu she‘riy parchalar voqealarga ba‘zan shiddatli, ba‘zan mungli tus berishda asosiy omil bo‘lib xizmat etadi.

Shu bilan birga, matn ichida badiiy-publitsistik uslubning boshqa ko‘rinishlariga ham e‘tibor qaratiladi. Bular *saj, mubolag‘a, evfemistik ibora* va boshqa uslubiy vositalardir. Binobarin, «Firdavs ul-iqbol» asarining tarkibida 765 ta she‘riy parcha mavjud bo‘lib, ular *g‘azal, qasida, ruboiy, ta‘rix, masnaviy, fard, qit‘a, bayt, nazm, she‘r* nomlari bilan har bir tasvirlangan voqeaning mazmunidan kelib chiqqan holda asar badiiy ta‘sirchanligini kuchaytirish uchun beriladi. Ba‘zi masnaviylarning hajmi 100 misragacha etib boradi. Muarrir shoir o‘zining tarixnavislik iqtidori bilan badiiy mahoratini uyg‘unlashtirib, asarning badiiy qimmatini yanada oshiradi. Ushbu she‘riy parchalarni janr va poetika nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilsa, Munis va Ogahiyning badiiy olami yanada yorqinroq va teranroq ochib berilishi shubhasizdir..

Yirik tarixiy asar bo‘lgan «Firdavs-ul-iqbol»ning yuzaga kelishida asosiy o‘rinni SHermuhammad Munis egallasa-da, uning yakuniga etishida Ogahiyning ham o‘ziga yarasha xizmati bor. Ogahiy tug‘ilganda Munis 31 yoshda bo‘lib, etuk shoir va tarixnavis sifatida tanilgan edi. Ogahiy tug‘ilgan kuni Munis Muhammad Rahimxon bilan safarlarda birga bo‘lib, To‘ramurod so‘fi fathi bilan bog‘liq Qo‘ng‘irot voqealarini yozayotgan edi. Shu asnodda u safar sarguzashtlari qatorida quyidagi lavhani ham tilga olib o‘tadi: «Bu yil mohi mazbur, ya‘ni zulqa‘daning o‘nunda, shanba kuni Erniyozbekkim, faqirning inisidur, hazrati vohib-ul atoya bir farzandi arjumand va valadi saodat payvand ato qildi va ul nur hadaqai jalol va hadiqai kamol Muhammadrizobekka navri mavsum bo‘ldi»¹⁵. Bu sana 1809 yil 17 dekabrga to‘g‘ri keladi. Ogahiy tarix va adabiyotni o‘zlashtirishda Munisning eng qobiliyatli shogirdlaridan biri bo‘lgan va u bilan imkon qadar birga bo‘lishga harakat qilgan. Munis vafot etganda Ogahiy endi yigirma yoshga to‘lgan, hali shaxs sifatida shakllanib ulgurmagan edi. Olloqulixon uning hali hayot tajribalari etarli emasligiga qaramay xonlikdagi eng mas‘uliyatli va nufuzli martabalardan biri bo‘lgan miroblik mansabi bilan silaydi, o‘zining davralardagi ilmiy va adabiy suhbatlariga chorlaydi.

¹⁵Шермухаммад Мунис, Муҳаммадризо Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: 2012. – Б. 143.

Shaxsan, Olloqulixon Ogahiyga ko'p sohalarda ustozlik va homiylik qiladi. Binobarin, Munis boshlab, nihoyasiga etkaza olmagan «Firdavs-ul-iqbol» tarixiy asarini davom ettirishni ham Ogahiyga Olloqulixon taklif etadi. Shu tariqa Ogahiy Olloqulixonning ko'rsatmasiga asosan Abulg'oz Muhammad Rahimxon birinchi faoliyatining sakkizinchi yilidan to vafotigacha bo'lgan voqealarni tarix sahifasiga muhrlay boshlaydi. Tarixnavisning ta'kidlashicha, u o'zi guvoh bo'lmagan voqealarni o'sha hodisalar shohida bo'lgan kishilardan so'rab olgan. Ayrim o'rinlarda yozilib qolingan materiallardan foydalangan. Shuni ta'kidlash kerakki, Munis Muhammad Rahimxon davri tarixining etti yillini yozib ulgurgan. Biroq, qolgan yillar tarixini bir tizimga solib, yozib tugallamagan bo'lsa-da, barcha voqealarda qatnashib, barcha muhim voqea-hodisalarni yozib borgan. O'sha yozma xomaki materiallar kitobning davomini yozishda Ogahiy uchun qimmatli manba vazifasini o'tagan. Muarrir Muhammad Rahimxon hukmronligining sakkizinchi yilida bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlar ekan, o'sha yili xon faoliyati doirasida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatga alohida e'tibor qaratadi. Davlat rahbari tutgan siyosat asnosida xalqning iqtisodiy-madaiy hayotini tasvirlashga harakat qiladi.

Albatga, har bir tarixnavis eng avvalo o'z davrining kishisidir. Shunday ekan, Ogahiy yaratgan asarlar u yashagan davr mafkurasini to'la aks ettirishi bilan ham xarakterlanadi. SHu sababdan ham tarixnavis xonning tutgan siyosati doirasida fikr yuritadi. Biroq ayrim o'rinlarda uning zulm-zo'ravonliklarining real tasvirini ham beradi.

Xiva xoni o'z faoliyatining sakkizinchi yilida harbiy qo'shnlarni shaylab, Xuroson sari yurish uyushtiradi. Ma'lumki, Xorazmda hukmronlik qilgan xonlarning ko'pchiligi eroniylar bilan chiqisha olmaganlar. Buning asosiy sabablari shia va sunniy mahzablari o'rtasidagi ixtiloflarga bog'lansa-da, aslida feodal tuzumning bosqinchilik tabiati bilan bog'liqdir. Eroniylar bilan kelishmovchilik masalasida «Qizil-boshlar» iborasi ko'p ishlatiladi. Ular «qizilboshlar» 12 shia imomi sharafiga o'n ikki yo'llik qizil matodan salla o'rab yurishgan. Qizilboshlilar safaviya tariqatining asosiy harbiy tayanchi bo'lishgan.

Ogahiy ham ularni qizilboshlar tarzida nomlaydi, Muhammad Rahimxon «Qizilboshiya ajsomiga zilzila etkizmak» maqsadida yurish boshlaydi. Muhammad Rahimxonning qo'shin to'plab kelganidan xabardor bo'lgan eroniylar tasarrufidagi bir qaicha qal'a hokimlari xonga elchi yuborib, omonlik so'rashadi. Biroq Mir qal'asi qarshilik ko'rsatgani uchun qamal qilinadi. SHu orada Hazorasp hokimi Abdulla inoqning xiyonat qilib, Buxoro amiri Amir Haydar bilan til biriktirgani haqida xabar keladi va xon shoshilinch ravishda Hazoraspga yo'l oladi. Abdulla inoq esa qochib ketadi.

Ogahiy Munis an'anasini davom qildirib, har bir voqea yakunida masala mohiyatiga mos she'riy misralarni qistirib o'tadi. U Abdulla inoqning qilmishiga she'riy satrlar bilan baho beradi:

Kishikim, davlati agar ketsa,
Baxtu iqboli ham vido' etsa,
Fe'li aning buzulgusi avval,
Aqli tori uzulgusi avval.

Xon bu voqeadan keyin Xazorasp hokimligini Qutlimurod inoqqa topshiradi.

Muhammad Rahimxon 1 o'z xonligining to'qqizinchi yilida yana Xurosonga yurish boshlaydi. Xiva xonining Marv, Xuroson, Darband, Mahin, Bomi, Durun, Gurgon kabi qal'a va viloyatlarga tez-tez qo'shin tortib kelishining ko'ngina sabablari bor eda. Bu hududlar chegara mintaqalari bo'lib, Xorazm, Buxoro, Eron davlatlari tasarrufidan bir-biriga o'tib turar edi. Qolaversa, bu uchala davlatga daxddor ayrim qabilalar o'zaro hujumlar uyushtirib talonchilik bilan shug'ullanar edilar. Natijada, Xiva xoni gohida hujumlarni qaytarish, fuqarolarini himoya qilish bahonasida bu hududlarga tez-tez ko'shin to'plab kelar, jangu jadallar bo'lib turar edi.

Tarixnavis ushbu siyosiy ixtiloflar tasviriga ko'proq e'tibor qaratgan. Xiva xoni o'zining o'n birinchi yilgi faoliyatida ikkinchi marta Xuroson ustiga yurish uyushtiradi. Buning asosiy sabablaridan biri Xuroson atroflarida yashovchi taka turkmanlarining talonchilik harakatlariga barham berish edi. Takalar Xiva xonligi

tasarrufidagi hududlardan o'tinchi, ko'mirchi, cho'ponlarni o'g'irlab ketishar, ularni Eronga olib borib qul qilib sotishar edi.

Xon ushbu yurishda Bomi burma, Mahin, Xirmontov, Gurgon qal'alarini fath etishni maqsad qilib qo'yadi. Ayrim qal'alar undan omonlik tilab taslim bo'lishadi. Xiva xoni qo'shin bilan chiqqanda taslim bo'lgan shahar va qishloq aholisini kechirgan. Ularning ba'zilarini o'z tasarrufidagi hududlarga ko'chirgan. Ayrim shahar va qishloq aholisiga tinchlik va'dasi bilan taslim bo'lishni taklif etishgan. Taklifga ko'nmagan ayovsiz jazolangan. Xurosonning Qorri Charlo degan kishlog'i aholisi taslim bo'lmaganligi uchun shafqatsiz qirib tashlangan va ayollar va bolalardan 270 dan ziyodrog'i asir olingan.

1816 yilda taka turkmanlari Hazorasp tasarrufidagi erlarga kelib, talonchilik qilishadi. Ko'plab mollarni o'lja qilib, bir necha kishilarni o'ldirib qochishadi. Hazorasp hokimi Qutlimurod inoq bundan ogoh bo'lib, ularni tutishga kishi yuboradi. Takalarning izidan quvib etadilar, ammo ular mollarni tashlab, qochib qutuladilar. Bu voqeadan so'ng xonlik yana takalarni jazolash uchun intiqom guruhlarini tashkil etib, dastlab yo'mit toifasidan Qoqa sardor, Mengli Ali sardor, keyin Murod sardor va Bog'ibek bahodirlar boshchiligidagi lashkarlar yashaydigan qishloqlarga hujum uyushtiradilar.

Muhammad Rahimxon o'z xonligi davrida Xiva xonligini ijtimoiy-siyosiy mavqeini yuksaltirdi. Buni tarixnavis xonning boshqa xonlik va amirliklarga ta'siri asnosida yoritib bergan. Muhammad Rahimxon taxtga o'ltirgach, dastlab xonlikning shimoliy-sharqidagi qoraqalpoq urug'larini, keyinchalik Sirdaryo bo'yidagi qozoqlarni o'ziga bo'ysundirib, ulardan boj -xiroj oladigan bo'ladi.

Ogahiyning ta'kiddab ko'rsatishicha, qozoq xonligini boshqargan Sherg'ozixon Xiva xoniga tobe' bo'lib, yaxshi munosabatni davom etdiradi. Biroq uning inisi Orangg'ozixon bu masalaga qat'iy qarshilik qiladi. Natijada aka-uka orasida doimo nizo chiqib, bunga Xiva xoni aralashib turadi.

Muhammad Rahimxon faoliyatining o'n ikkinchi yilida Orangg'ozini jazolash uchun Suyunbiyni bosh qilib, qoraqalpoq Davlatnazarbiy boshchiligidagi 8 ming kishini unga qo'shib katta qo'shin yuboradi. Ushbu qo'shin Jonkent

qal'asida Orangg'ozining izidan etadi. Natijada, Orangg'oz qochib qutuladi. Xon lashkarlari ikki mingga yaqin kishini qatl qilib, 700 ayol-qizni asir qilib olishadi.

Bundan sal oldin Orangg'ozixonning inisi Nurum to'ra Xonqaga hujum qilib, talonchilik ishlarini amalga oshirgan edi. Suyunbiy boshliq lashkarning Orangg'oziga qarshi yurishining sabablaridan biri o'sha hujumning intiqomi edi.

Tarixnavisning tasvirlashiga qaraganda Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Eron shohlari, qozoq xonlari o'rtasida doimiy ixtiloflar chiqib turgan. Xiva xonligi Muhammad Rahimxon davrida mintaqadagi siyosiy- ijtimoiy ahvolga faol aralashadigan darajadagi nufuzga ega bo'lgan. Bu ixtiloflarda uchta davlat boshqaruvi o'rtasida joylashgan taka turkmanlarining roli katta bo'lgan. Chunki ular muntazam ravishda bir davlatdan ikkinchi davlat tasarrufiga o'tib turishgan. Shu bilan birg, ular aksariyat hollarda talonchilik bilan shug'ullanishgan. 1821 yilda Xiva xoni Dashti Qipchoqda Orangg'oz mojarosi bilan yurganida, taka turkmanlari Hazoraspga kelib, talonchilik va zo'ravonlik qilishadi. Bundan xabar topgan Muhammad Rahimxon o'sha talonchi taka turkmanlari Buxoro amiri Amir Haydar tasarrufidagi hududga tegishli kishilar ekanligidan ularga tanbeh berish va bunday talonchiliklarga chek qo'yishni iltimos qilib Berdi inoqni Buxoroga elchilikka yuboradi. Biroq Amir Haydar ushbu iltimosga avval rozilik bersa-da, uning bajarilishiga ahamiyat bermaydi. Keyinchalik unga bu borada yana bir bor eslatilgand, istehzo, hazil aralash mujmal javob beradi va biz ularga tanbeh va jazo bera olmasmiz, kerak bo'lsa, xon janoblarining o'zlari ularni jazolasin, deydi. Mana shu qaltis holatlar ikki davlat o'rtasidagi ixtiloflarni o'ta keskinlashtiradi va Xiva xoni Buxoroga muntazam hujum uyushtira boshlaydi.

1822 yilda Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi o'rtasida qattiq jang boshlanadi. «Ikki tarafdin ul miqdor to'p otildikim, ovozi muhib sipehri barin qulog'i asm qildi. Dudi zulmat andud ul mushobih havog'a yuz urdikim, oftobi olamtob chehrasin yashurdi». Bu jang yakunidin keyin shu yili ramazon oyida Amir Haydarning o'g'li Umarxon boshchiligidagi lashkarlar bilan yana katta to'qnashuv bo'lib o'tadi. Shu jarayonda bir qancha turkman urug'lari Xiva xonidan omonlik tilab taslim bo'lishadi. Forob, Maymana, Qorako'l viloyati oqsoqollari

xon oldiga kelib uzrxohlik qilishadi. Albatta, Xiva xoni qo‘shinlari orasida ham halok bo‘lganlarning soni behisob edi. Ularning ko‘pgina qismi daryoga g‘arq bo‘lib dunyodan ko‘z yumdilar. Xiva xonining Buxoro bilan urushi muntazam davom etadi.

Muhammad Rahimxon 1823 yilda yana Buxoroga yurish uyushtirdi. Bu safar u hujumni Qoqishtuvon qal‘asidan boshlaydi. Qatliom va vayronagarchilikning oldini olish uchun qal‘a hokimi Iskandarbek bir guruh ayonlar bilan xondan uzrxohlik tilaydilar. Xon esa ularni afv qilib, biror narsasiga daxl qilmaydi.

Og‘or qo‘rg‘oni aholisi taslim bo‘lishni istamasdan jangga kirishadi. Ikki o‘rtada shiddatli jangu jadal davom etadi. Muhammad Rahimxon jangu jadal bilan Buxoro shahriga yaqinlashib boradi. Shaharga hujum uyushtirish uchun reja tuzadi. Biroq, Amir Haydar bu paytda lashkarlari bilan birga Samarqandga ketgan bo‘ladi. Shu sababli himoyasiz shaharga kirishni yarashmaydigan ish hisoblab, o‘z ra‘yidan qaytadi va Xivaga qarab yo‘l oladi.

Muhammad Rahimxon ushbu yurishidan ikki oy o‘tgach, yana Chorjo‘y viloyatiga yurish boshlaydi. Yurish jarayonida ko‘plab vayronagarchiliklar yuz beradi. Taslim bo‘lgan qal‘alar aholisini sal ilgari o‘z tasarrufiga o‘tkazilgan Marv viloyatiga ko‘chiradi. O‘z navbatida, Buxoro amiri ham Xiva xonligi hududiga talonchilik, zo‘ravonlik bilan shug‘ullanuvchi guruhlarni yuborib turadi.

Xiva xoni hali o‘z poytaxtiga qaytmasdan burun Amir Haydar chovdir turkmanlarining arobachi tiyrasidan chiqqan Muhammad Berdibek boshliq 100 otliqni Xorazm tomonga jo‘natadi. Ular qaroqchilik, talonchilik bilan shug‘ullanib, uch-to‘rt kishini o‘ldirib qochganligi xonga ma‘lum bo‘lgach, qaroqchilarni tutishga harakat boshlashadi. Ularning izidan quvib, Muhammad Berdibekni uxlab yotgan joyida qo‘lga olishadi. Qolganlarni Xol otog‘acha quvib, ulardan uch-to‘rt kishigina qutilib qoladi.

1825 yilda Xiva xoni Karki atrofiga Saidniyoz ushoq va Yorquli pahlavonlar boshchiligida qo‘shin yuboradi. Sal o‘tmay Olloshbiy Poykand qal‘asini bosib

olib, uning aholisini xon farmoniga muvofiq Xorazmning Hiloli mavzeiga ko'chiradi.

Shu tariqa Xiva xoni va Buxoro amiri o'rtasidagi ixtiloflar uzoq davom etadi. Oqibatda oddiy fuqaroning boshi fojeadan chiqmaydi. Ogahiy bu voqealarni tasvirlaganda, asosan, Xiva xoni faoliyatiga asosiy e'tiborni qaratadi. Uning qilgan xunrezliklarining real tasvirini berar ekan, go'yo xonning zafarli yurishiga baho berganday bo'ladi. Biroq, ushbu voqealarni o'qigan kishi o'sha davrda faoliyat yurgizgan amaldorlarga o'zining haqiqiy bahosini bera oladi. Tarixnavis xonning jangu jadal olib borishi, shafqatsizligi, o'z manfaati yo'lida hech narsadan qaytmasligi xususida so'z yuritish bilan birga, ba'zan uning adolat peshaligi, rahmdilligi va tantiligi haqida ham ayrim lavhalarni berib o'tadi. Masalan, Xiva xonining 1822 yildagi yurishining 37-kuni iydi ramazon arafasiga to'g'ri keladi. O'sha munosabat bilan u Forobning Qulonchi qishlog'idan keltirilgan barcha asirlarni, mol-mulki bilan o'z makonlariga qaytarib yuboradi.

Darband va Lutfobod qal'alariga hujum uyushtirib, ko'plab asirlarni qo'lga olganda, taka turkmanlaridan asir tushgan bitta yigitning onasi xondan o'g'lini kechirishni iltimos qilib keladi. O'sha kekxa kampirga achinib, xon o'g'lini unga baxsh etib, yana sarupolar kiydirib jo'natib yuboradi. Xon o'z lashkarlari orasida ham qat'iy tartib o'rnatgan edi.

1818 yilda Oxal takalariga qarshi yurishda Anav atrofida xon lashkarlaridai ba'zilar xondan beruxsat aholining bog'-rog'larini talon-toroj qilishadi. Bu masalada mahalliy bog' egalari xonga shikoyat qilganda, Muhammad Rahimxon tartibsizlik qilganlarni qattiq jazolaydi va ozor chekkanlarga in'omlar beradi.

1819 yilgi Dashti Qipchoq yurishida Oqyoqish atrofidagi Morqoy degan mavzeda to'xtaganda, xon lashkarlaridan bir guruhi bozorga qo'y olib borayotgan bitta qozoqning mollarini talon-toroj qilishadi. Xon bu voqeadan xabar topgach, aybdorlarni jazolaydi va qo'ylarni egasiga qaytartiradi. Muhammad Rahimxon hayotidagi bunday xalqparvarlik xususiyatlari uning harbiy yurishlaridagi xunrezliklari oldida hech narsaday ko'rinmasa-da, Ogahiy uning qalbida ham insoniy tuyg'ularning, ezguliklarning mavjud ekanligini ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Shuningdek, Muhammad Rahimxon xonlik hududida ham, boshqa hududlarda ham biror ziyoratgohga qadam ranjida qilsa, u erda qur'on tilovot qilish, xayr-sadaqa berish udumiga qat'iy rioya qiladi. Ismi Mahmud, SHayx Jalil, Najmidsin Kubro, Hakim ota va boshqa ziyoratgohlarda bo'lib, u erlarni obod qilishga hissa qo'shadi. Ogahiy Muhammad Rahimxon faoliyatini yoritishda faqat uning harbiy yurishlarinigina emas, balki mamlakatning ichki ahvoli, xalq farovonligini yuksaltirishdagi xonning tutgan o'rnini ko'rsatishga ham e'tibor qaratadi.

Ma'lumki, Xorazmda, asosan, dehqonchilik rivojlangan bo'lib, uning negizida sug'orish masalalari asosiy o'rinni egallagan. Shu boisdan mamlakat rahbarlari irrigatsiya tizimiga alohida ahamiyat berishgan. Bu tamoyil Muhammad Rahimxon birinchi davrida, ayniqsa, rivojlanish bosqichiga qadam qo'ygan. Muhammad Rahimxon taxtga o'tirgandan keyin asosiy diqqatni sug'orish tizimlarini yangilash, qayga ta'mirlashdan boshlaydi. 1815 yilda Xorazmning shimoliy hududlarini suv bilan ta'minlashni yaxshilash uchun Gurlanning qibla tomonidan katta bir ariq barpo qilishni o'z inisi Muhammad Nazarbekka topshiradi.

Bu anhor haligacha Qilichniyozboy arig'i nomi bilan mashhurdir. Muhammad Rahimxon xonlik hududidagi ariqlarni har yili tozalab qazdirishda o'zi shaxsan qatnashgan. Shu yili u dastlab rabi'uloxir oyida Xivaning, jumodi-ul avval oyida Shovot ariqlarini qazishda shaxsan o'zi ishtirok etadi. Xiva xoni Marv viloyatini o'z tasarrufiga o'tkazgandan keyin uning sug'orish shoxobchalariga ko'proq e'tibor qaratadi. 1824 yilda Marvdagi suv shoxobchalarini izga solish uchun Qutlimurod inoqni yuboradi. Daryoga band bog'lab, suvni dehqonchilik ishlariga sarflash uchun katta kuch tashlanadi. Biroq ikki marta bog'langan bandni suv yuvib ketadi. Xon Qutlimurod inoq ixtiyoriga yana qo'shimcha kuch yuboradi. Oxir oqibat band bog'lanib, boshlangan ish muvaffaqiyat bilan nihoyasiga etadi.

Tarixnavis voqealar silsilasini bayon etganda, etnografik ma'lumotlarni ham nazardan chetda qoldirmaydi. Kitobning ayrim qismlarida to'y va aza tavsiflari qiziqarli lavhalarda o'z ifodasini topgan. Xon 1813 yilda o'g'li Rahimquli

to‘raning sunnat to‘yini o‘tkazadi. To‘y boshi qilib Muhammad Yusuf mehtarni belgilaydi.

Tarixnavis to‘yda: «choyu qandin va halvoi shirin va nisholai jonfizo va murabboi halovat intimo va mevai vofira va favokihi mutakosira va qandi beg‘oyat va nuqli benihoyat va shakari mavfur va naboti mahsur, bo‘shqobi zarrin va shirai ranginlar bila chektilarkim, borining te‘dodida aql hayron va ko‘ngil xurosondir», deydi. Sozandalar haqida quyidagi misralarni bitadi:

Tuzub soz har sori sozandalar,
Kirib raqsga necha bozandalar.
Muhayyo bo‘lub borcha asbobi aysh,
Ochildi xaloyiqg‘a avvobi aysh¹⁶.

Tarixnavis to‘y tasvirini berar ekan, Xorazmdagi to‘y bilan aloqador barcha udumlarga batafsil to‘xtaladi. Ot poygasi manzarasi haqidagi ma‘lumot diqqatga loyiqdir. O‘sha davrdagi poygada «Ulug‘ otni bir boshqa va g‘unonni bir bo‘lak va toyni bir boshqa ayirib» musobaqani tashkil etishar ekan.

To‘y davomida pahlavonlar kurashi, «oltin qovoq»- merganlar musobaqasi ham tarixnavis e‘tiboridan chetda qolmagan. Uning ko‘rsatishicha, to‘y o‘n kun davom etgan. To‘y nihoyasida xon ayonlarining xizmat darajasiga qarab ularning barchasiga sarupoy kiydirib, beliga xanjar taqqan. Ayrimlariga arabi ot mindirgan. Binobarin, «Fuqaro va masokindin bir kishi qolmadikim, har kim o‘z xo‘rdu holig‘a ko‘ra sarupoy kiyib, navozishoti xisravonadin sarbaland va bahramand bo‘lmag‘an bo‘lg‘ay. Tarixiy asar sahifalarida turli fojealar, bevaqt ajal changaliga tushish kabi lavhalar ham anchani tashkil etadi. Ogahiy bunday holatlarni achinish bilan tilga oladi. SHulardan biri Qutlimurod inoqning vafotidir. Xon inoqni Marvga daryoga band bog‘latish, aholini suv bilan ta‘minlashni yaxshilash uchun yuborgan edi. Inoq bu vazifani nihoyasiga etkazish arafasida kasalga chalinadi va vafot qiladi. Uning jasadini Xivaga olib kelganda «SHahardin ulamoi i‘zom va umaroyi kirom va oliymakon shahzodalar va garduntovon beklar va jami ulug‘ va kichik istiqbolig‘a chiqib, izdehomi tamom bila nolayu nafirni sipehri asir

¹⁶ Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-икбол. – Тошкент: 2012. – Б. 280-281.

qulog'ig'a etkurib, rusumi shohona va e'zozi xusravona bila nuqudi farovon va javohiri bepoyon va laoli bekaronni ul janob na'shig'a sochig'lar sochib, hujumi tamom va g'avg'oyi molokalom bila shaharga kelturib, o'zining madrasasidakim, Xivaq shahrida hanuz aningdek imorati oliy bino topmamish erdi, sanai 1226 da, qo'y yili bino qildirib, o'ziga maxsus bir joy tuzatturmish erdi, ul joyda dafn qildilar. Ogahiyning ushbu tavsifida tobut ustidan sochig'lar sochish udumining mavjudligi e'tiborni tortadi. Bu udum Xorazmning ayrim joylarida hozirgacha saqlangan.

Ogahiy Muhammad Rahimxonning binolar barpo etishi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi kabi voqealarga ham asardan o'rin ajratgan.

Muhammad Rahimxon aksariyat hollarda harbiy yurishlardan keyin shikorga chiqish-ov ovlashga ishtiyoqmand bo'lgan. Xonning o'zi mohir chavandoz va salohiyatli mergan bo'lgan. U mamlakatning turli mintaqalarida ov ovlash bilan shug'ullangan. U 1825 yilda Qo'ng'irot hududiga shikorga chiqadi. Bu uning oxirgi shikori edi. O'sha shikor paytida u kasalga chalinadi. Bu paytlarda Muhammad Rahimxon davlat arbobi sifatida o'zini to'la namoyon qila olgan edi. Shu sababli qo'shni davlatlar Eron, Xuroson, Buxoro va boshqa davlatlar Xiva xonligi bilan yaxshi munosabatlarni tiklashga harakat qiladilar. Muhammad Rahimxon ham bunday munosabatlarga ijobiy yondashdi.

Tarixnavisning xon haqida yozganlari to'g'ri bo'lib, Muhammad Rahimxon Xivaning so'ngi xonlari orasida alohida ajralib turadi. U ko'pgina irrigatsiya shahobchalarini ta'mirlatadi va yangi kanallar barpo qilib, xonlikda dehqonchilikning ravnaq topishiga yo'l ochdi. U ko'pgina binolarning barpo bo'lishida tashabbus ko'rsatadi. Toshhovuzda qal'a kurish uchun er ajratdi. Har bir mintaqada xon uchun maxsus hovlilar barpo qiladi. Sayod, Gandumkon hovlilarini shaxsan o'zi rahbarligida qurdiradi. Pahlavon Mahmud xonaqosi ansamblini qurdiradi va o'zi ham o'sha joyga dafn etiladi.

Tarixnavisning ta'kidlashicha, uning davrida fuqaro osuda hayot kechirib, ilmu fazlga ixlos ko'rguzdi. Uning suhbatlarida dashnom bo'lmas, aksar

majlislarda ulamo va fuzalo, zurafo va shuaro bilan hamnashin bo‘lib, kitobxonlig‘, ma‘nashunoslik va latifago‘ylikdin o‘zga ishga mayl qo‘ymas erdi.

Ogahiy «Firdavs-ul-iqbol» asarini yozishda Munis an‘analarini izchil davom ettirgan. Muhammad Rahimxonning faoliyatini yilma-yil, oyma-oy, ba‘zan kunma-kun bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni orqali aks ettirgan. Har bir voqeaga mos holda Qur‘on oyatlaridan dalillar keltirgan. Eng asosiysi tarixiy asarning o‘qimishlilik va ta‘sirchanligini ta‘minlash maqsadida she‘riy asarlarga, ayrim rivoyat va naqllarga murojaat etgan.

Ogahiy «Firdavs-ul-iqbol» tarixiy asarining o‘zi yozgan qismida she‘riy janrlarga e‘tibor qaratishda ustoz Munis izidan borgan.

Tarixiy asarning Ogahiy qalamiga mansub qismida 58 ta masnaviy, 10 ta nazm, 6 qit‘a, 1 munojot, 7 bayt, 1 ruboiy, 1 ta‘rix, 2 fard, ishlatilgan. Bu janrlarning orasida masnaviyilar eng faol she‘riy janr bo‘lib, ularning hajmi 840 misrani tashkil etadi. Barcha she‘riy misralarning umumiy soni 1100 dan oshadi.

Ogahiyning masnaviy janriga ko‘proq ahamiyat berishining asosiy sababi bu janrda epiklik xususiyatining kuchlilikidir. Boshqacha aytganda bu janrda voqeani bayon qilishga qulaylik mavjud.

Nazm deb nomlangan she‘riy parchalar ham, asosan, masnaviy janriga mos keladi. Bu janrda ham voqeani masnaviy shaklida bayon etish asosiy xususiyat hisoblanadi.

Ogahiy ushbu janrlardan tarixiy asarning o‘sha janrlarga ehtiyoj tug‘ilgan o‘rinlarda foydalangan. Masalan, asardagi voqealarni Munisga tegishli qismidan keyin davom ettirar ekan, bu ishga qo‘l urayotganda xudoga hamdu sano aytadi. Natijada munojot janriga murojaat qilishiga to‘g‘ri keladi.

Tarixnavis qo‘llagan janrlar orasida eng murakkabi ta‘rixlardir. Ma‘lumki, tarixiy asarlarda muhim voqealar harflarga jo bo‘lgan raqamlar vositasida qayd etiladi. «Firdavs-ul- iqbol»ning Ogahiy yozgan qismida ham Munis qalamiga mansub ikkita ta‘rix kiritilgan bo‘lib, ular Sul-tonmirob vafotiga bag‘ishlangan.

Umuman, «Firdavs-ul- iqbol» Xorazm tarixini o‘rganishda muhim tarixiy-adabiy manbadir.

II bob. XIX asr I yarmi XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida tarixnavislik an'anasi rivoji

2.1. Ogahiyning tarixnavislik faoliyati

XVIII asrda Turkiston o'lkasida ro'y bergan o'zaro to'qnashuvlar, toju taxt uchun yuz bergan kurashlar natijasida bu erda 3 ta mustaqil xonlik vujudga keldi. Qo'qonda o'zbeklarning minglar, Buxoroda mang'itlar, Xivada qo'ng'irotlar sulolasi davlat tepasiga keldi va hukmronlik qila boshlaydilar. Har uchala davlat ham o'zbeklar qo'l ostida bo'lishiga qaramasdan, tarixnavislik Buxoro va Qo'qon xonliklarida eski an'anaga muvofiq, fors-tojik tilida olib boriladi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki, faqatgina Xiva xonligida bu soha o'zbek adabiy tilida amalga oshiriladi. O'zbekcha ajoyib tarixiy asarlar yaratiladiki, ularning har biri nafaqat Xiva xonligi, balki butun Turkistonning voqealarga boy o'tmishi sahifalarini haqqoniy va hayotiy faktik ma'lumotlar asosida yoritishda beqiyos ahamiyatga egadir.

XVIII asr oxiriga kelib, Xorazmdagi siyosiy ahvol izga tushadi, taxtni egallagan qo'ng'irotlar sulolasi o'lkada madaniy hayotni, xususan, tarixnavislikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadilar,

Bu mas'uliyatli va xayrli ishlarni bajarish XIX asr o'zbek madaniyati tarixining yorqin yulduzlaridan biri Muhammadrizo Ogahiy zimmasiga tushadi. Ogahiy o'z davrining zabardast shoiri bo'lish bilan birga, badiiy adabiyotimiz xazinasini o'lmas tarjima asarlari bilan boyitgan tabarruk zotdir. U o'nlab badiiy va tarixiy asarlarni yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Tarjima asarlari orasida «Ravzat-us-safo», «Zafarnoma», «Nodirnoma», «Tabaqoti Akbarshohiy», «Tazkirai Muqimxoniy» kabi nodir tarixiy kitoblar mavjud. Ogahiy o'zining bu tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiqroq davrini yoritib beruvchi qimmatli tarixiy xronikasini yaratadi va O'rta Osiyodagi tarixnavislik fani taraqqiyotiga qimmatli hissa qo'shdi. Uning tarixiy asarlari yirik sharqshunos

tarixchi olimlar V.V.Bartold, S.P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, M.Yo'ldoshev va Q.Munirovlar tomonidan yuksak baholandi.

Bizga ma'lumki, Ogahiy Xiva taxtiga ketma-ket kelib ketgan 8 xon hukmronligi davrida yashadi va faoliyat ko'ratdi, U xonlarning harbiy yurishlarida qatnashdi, barcha voqea va hodisalarni bevosita o'z ko'zi bilan ko'rib, keyinchalik tarixiy asarlarida haqqoniy aks ettirdi.

Ogahiyning tarixiy asarlari, o'z navbatida, o'ziga xos uslubda yozilgan badiiy nasr namunasi ham hisoblanadi. Ularda har bir tarixiy voqea badiiy tarzda bayon qilib beriladi va ba'zi o'rinlarda she'riy parchalar ham ishlatiladi. She'riy parchalar masnaviy, qita, bayt, ruboiy, fard tarzida har bir voqea tasviri va ruhiga mos ravishda qo'llaniladi. Shoirning tarixiy asarlari tarkibidagi she'rlari ham alohida tadqiqotni talab qiladiki, bu g'oyatda muhim jihat hamon tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolib kelmoqda.

Ogahiyning deyarlik barcha tarixiy asarlarida faqat o'zbek xalqigina emas, balki Xorazm diyorida yashagan qardosh xalqlar - turkmanlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa guruhlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi, Ayniqsa, turkman va qoraqalpoq xalqlari ahvoli va ularning ijtimoiy-madaniy vaziyatlari, turli xil harakatlari va qo'zg'olonlari beg'araz tarzda xolisona yoritib berilgan. Bular Ogahiyning juda odilona ish tutganligidan darak beradi. Ayniqsa, qoraqalpoqlarning Oydo'stbiy boshchiligidagi, turkman va qozoq aholisining o'z oqsoqollari boshchiligidagi Xiva xonlari zulmiga qarshi kurashga o'tlanishlari, xon va boshqa saroy amaldorlarivi yuz-xotir qilmasdan, haqqoniy tasvirlanadi va tegishli baho berilib, munosabat bildiriladi.

Ogahiyning matnshunoslik nuqtai nazaridan katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan bu qo'lyozma tarixiy asarlari qariyb yuz yildan buyon olimlar, tarixchilar va sharqshunoslarning diqqatini o'ziga tortib kelmokda. Darhaqiqat, Xorazmdagi o'zbek davlatchiligi hamda unga qo'shni bo'lgan turkman va qoraqalpoq xalqlari tarixini o'rganishda ham bu asarlarning ahamiyati kattadir.

«**Firdavs ul-iqbol**». Asarning oltita qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan ikkitasi Sankt-Peterburgda, to‘rttasi esa O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti xazinasida saqlanmokda.

Ma’lumki, Xorazmda qo‘ng‘irotlar sulolasining hukmronligi Eltuzarxondan boshlangan. Xorazm tarixnavisligining boshlanishni ham ayni mana shu xon nomi bilan bog‘liq. U Shermuhammad Munisni o‘z huzuriga chorlab, Xorazm xonlari tarixini yozish vazifasini yuklaydi¹⁷. «Firdavs-ul-iqbol» asarining yozilishi ana shu tariqa boshlangan. Eltuzarxondan keyin davlat tepasiga kelgan Muhammad Rahim I ham Munisga asarni davom ettirishga buyuradi. Tarixchi olim Q.Munirovning yozishicha, «Munis Muhammad Rahim I hukmronligining ettinchi yili voqealariga kelganda, xon unga Mirxondning mashhur «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarini o‘zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qilib, ikkinchi jildiga o‘tganda, Muhammad Rahim I vafot etadi. Uning o‘rniga o‘g‘li Olloquli taxtga o‘tiradi. U ham Munisga kitob tarjimasini davom ettirishni topshiradi. Biroq Munis ikkinchi kitobni oxiriga etkaza olmay, 1244 hijriy (melodiy 1829) yili vabo kasalligi tufayli to‘satdan vafot etadi. Olloqulixon hijriy 1255(melodiy 1840) yili Munisning shogirdi va yoshlikdan tarbiyasini olgan jiyani Muhammad Rizo Ogahiyini chaqirib, 1813 yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan «Firdavs-ul-iqbol»ni davom ettirishni buyuradi.

Ogahiy Munis boshlagan «Firdavs-ul-iqbol»dagi 1813 yildan 1825 yilgacha bo‘lgan voqealar qismini yozadi. Shu tariqa, mazkur tarixiy asar avlodlar mulkiga aylanadi.

«Firdavs-ul-iqbol» asari muqaddima, beshta asosiy bob va xotimadan tashkil topgan.

I bob. Odam safiyullohdan Nuh alayhissalom avlodlarigacha bo‘lgan hodisalar bayoni.

II bob. Yofasdan Qo‘ng‘irot sho‘basigacha bo‘lgan mo‘g‘ul hukmronlari.

III bob. Eltuzarxonning ota-onalari haqida.

¹⁷ Шермухаммад Мунис, Мухаммадризо Огахий. Фирдавс ул-иқбол. – Тошкент: 2012. – Б. 15.

IV va V boblar Eltuzarxonning tug‘ilishidan boshlab, uning xonlik davri, Muhammad Rahimxon hukmronligi va bu asarning yozilib yakunlanishigacha sodir bo‘lgan voqealar bayoni.

Asar boblarining nomlanishiyoq unda turkiy xalqlar tarixiga oid qimmatli ma’lumotlar mavjudligidan darak berib turadi.

«**Riyoz ud-davla**». Ilm ahliga asarning ettita qo‘lyozmasi ma’lum bo‘lib, ulardan to‘rttasi Sankt-Peterburg SHarqshunoslik institutida saqlanadi. Bulardan avvalgi ikkitasi mukammal nusxalar bo‘lib, keyingi ikkitasi to‘liq, emas. «Riyoz ud-davla»ning uchta qo‘lyozmasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozma asarlar xazinasida saqlanmoqda.

«Riyoz ud-davla»da Olloqulixon saltanati davri (1825-1843) voqealari bayon qilinadi. Asar (umuman, Ogahiyning barcha tarixiy asarlari ham) nasri musajja’ (ichki qofiyali nasr)da yozilgan. Ba’zi muhim fikrlar esa she’riy yo‘l bilan ham berib borilgan.

Muarrir asarning muqaddimasida quyidagicha yozgan edi: «Erniyozbekning o‘g‘li Muhammad Rizo Mirob, laqabim Ogahiy, o‘z ahvolimni quyidagicha bayon etaman. Yoshlik chog‘imda boshimga turli-tuman tashvishlar tushdi. Har tarafdan boshimga balo toshi yog‘ildi. Hamisha ko‘nglimda notinchlik va ta’bimda xavf hukm surar edi.

Nazm:

**Gohi yuz qo‘yib boshimga qayg‘u,
Ko‘runub ko‘zima olam qorong‘u.
Bo‘lub g‘am xayli gohi qosidi jon,
Yiqilib boshima garduni gardon.
Ochib gohi havodis ilki panja,
Qilib ko‘nglumni a‘zosti ranja.
Bo‘lub dilxastayu tab‘im parishon,
Fig‘onlar aylar edim, lek pinhon.**

Lekin jahondin etgan har xil alamlarki olimlarning va shoirlarning suhbatida bo‘lish bilan biroz tarqatar edi»¹⁸.

¹⁸ Огахий. Riyoz ud-davla. Asarlar. VI жилдлик. V жилд. – Тошкент: 1978. – Б.9.

Bu iqtibosdan chiqadigan xulosa shundan iboratki, birinchidan, boshqa barcha asarlari kabi «Riyoz-ud-davla» ham Ogahiyning hayot yo‘li va ijodiy faoliyatini o‘rganishda mo‘tabar manbalardan hisoblanadi. Ikkinchidan, ma‘lum bo‘ladiki, shoir yoshlik chog‘laridanoq ilm-ma‘rifatga intilgan, «Jahondin etgan alamlarni olimlar va shoirlarning suhbatida bo‘lish bilan tarqatgan». Bu esa uning kasbi kamolotida muhim o‘rin tutgan.

«Riyoz-ud-davla»da Olloqulixonning tavallud sanasidan to vafotiga qadar bo‘lgan voqealar bayon qilingan, Jumladan, Olloqulixonning taxtga kelishi bilan bog‘liq voqealar, Xiva xonligining Eron, Afg‘oniston, Rossiya, Angliya kabi mamlakatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari, xorazmshohlarning Eronga qilgan yurishlari haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Olloqulixonning bunyodkorlik faoliyati, xususan, kanallar qazilishi, masjid-madrasalar qurilishi, sug‘orish inshootlari yuzaga kelishida xonning olib borgan siyosati to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Umuman, «Riyoz-ud-davla» muhim tarixiy manba sifatida qimmatlidir. **«Zubdat ut-tavorix»**. Asarning beshta qo‘lyozma nusxasi ma‘lum. Ulardan ikkitasi Sankt-Peturburgda, uchta O‘zbekiston Fanlar akademiyasi SHarqshunoslik instituti fondida saqlanadi.

«Zubdat-ut-tavorix» hijriy 1262, milodiy 1864 yilda yozilgan. Asarda 1843 yildan 1846 yilgacha Xorazmda Rahimqulixon saltanati davrida bo‘lgan voqealar xronologik tarzda bayon etilgan.

Bu asar haqida Q.Munirovning tadqiqotlarida qisqacha ma‘lumot berib o‘tilgan. Ogahiy asarlarining olti jildligida «Zubdat-ut-tavorix» sarlavhasi bilan kichik bir parchagina e‘lon qilindi. Asarning to‘la nashri amalga oshirilmagan. Chunki asarning mazmun-mohiyati o‘sha davrdagi hukmron mafkuraning siyosatiga, tutgan yo‘liga tamoman zid edi. Shu tufayli asar bugungi kungacha maxsus tadqiq etilmay keldi.

«Zubdat-ut-tavorix»ning muqaddimasida ta‘kidlanishicha, Ogahiy «Zubdat-ut-tavorix» asarini Rahimqulixonning farmoniga binoan yozishga kirishadi. Sharkda, jumladan, Turon zaminda hukmdorlarning badiiy yoki ilmiy

asar - soʻzga ilohiy neʼmat deb qarashlari odatiy hol. Yaxshi nom qoldirish uchun harakat ular hayotining asosiy dasturi hisoblangan. Xorazm xoni Rahimqulixonning «zikri jamil» va «vasfi jalil»in «jahon avroqida boqiy qoldirish» va «jahon ahlin hayrat bahrigʻa solish»dek xayrli niyati «Zubdat-ut-tavorix» asarining yaratilishiga sabab boʻldi.

«Zubdat-ut-tavorix» ikki qismdan iborat. Muarrix qayd etganidek, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tugʻilishi, ilm oʻrganish va harbiy mahorat kasb etish yoʻlidagi saʼy-harakatlari, shuningdek, boʻlgʻusi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga oʻtirgan kundan to vafotiga qadar sodir boʻlgan voqealar, hodisalar va futuhotlar sharhiga bagʻishlangan.

Ogahiyning fikricha, hukmdor uch fazilat - oliy nasab, ilmu maʼrifat va harbiy mahorat sohibi boʻlmogʻi zarur. Rahimqulixonda ushbu uchala fazilat ham mujassam edi. Buni muarrixning quyidagi soʻzlari ifoda etadi: «Chun ul hazrat, xususan, tavorix va qasoid va masnaviyot va gʻazaliyot va jamiʼ sheʼr ulumining qavoidigʻa mahorati tamom hosil qilib, daqiq-fahmlik va nazokatshunosligʻ va latifagoʻylik fununida ul miqdor avji eʼtiborgʻa chiqtikim, jahon fozillari va zamon komillari oʻz ajzigʻa qoyil boʻlib, ul hazrat suhbatida goʻyolik tilin xomushligʻ tamogʻiga tiqdilar».

Ogahiy Rahimqulixonning harbiy mahorat bobida erishgan yutuqlarini ham shoirona fasohat bilan taʼkidlaydi.

Muarrixning qayd etishicha, hijriy 1257 (milodiy 1843) yilda Rahimqulixon otasi Olloqulixonning farmoyishi bilan Eron yurishiga oʻtlanadi. Ushbu safar asnosida Rahimqulixonning adolatli hukmdor sifatida, Ogahiyning taʼbirlari bilan aytganda, «humoyun eʼtiqodu pok niyat» shoh sifatida kamolga erishganligini koʻrsatuvchi ahamiyatli hodisa roʻy beradi. Bu hodisaning tafsiloti shundan iboratki, Xurosonning Bogʻdis muzofotiga qarashli Koʻshk va Qoratepa mavzellarida yashovchi Jamshidiya degan toifa Rahimqulixonga Hirot hokimi Shoh Komrondan shikoyat qiladilar. Ular Komronning zulmi haddan oshganligini, Jamshidiya toifasini Xorazmga koʻchirishga qaror qiladi. Shahzoda ushbu

mas'uliyatli vazifani amirlaridan Xudoyorbiy, Niyozmuhammadboy, Muhammad Aminbek va yuzboshilaridan Xudoybergan va Abdulla yasovulboshilarga yuklaydi. Muarrixning ta'kidlashicha, Rahimqulixon Jamshidiya toifasidan o'n besh ming uylikdan ziyodaroq elatni Xurosondan Xorazm diyoriga ko'chirib, «kelturulg'ondin so'ng Qilich Niyozboy nahrining bir shu'basi kanorida Quba tog'ining janubiy ostida ul tavoyifg'a maskan va mazori' tayin qilindi. Holo ulug' el va obodon yurt bo'lib o'lturubdurlar».

Diqqatga sazovor jihati shundaki, mazlum xaloyiq madad so'ragan paytda, Rahimqulixon ulardan o'z yordamini ayamadi. Ushbu hodisaning o'ziyiq Ogahiy tarafidan uning sha'niga aytalغان ta'rifu tavsifning nechog'lik asosli ekanligiga yorqin dalil bo'la oladi.

Tarixga ibrat va tafakkur nazari bilan qaralsa, toj-taxt uchun bo'lgan kurashlar natijasida necha-necha obod manzillarning xarob bo'lganligini, buning natijasida el-ulus ahvolining og'irlashganligini, tarakqiyot o'z o'rnini tanazzulga bo'shatib berganligini kuzatish mumkin. Shu nuqtai nazardan, Rahimqulixonning Xiva taxtiga kelishidagi hodisalar haqli ravishda tariximizning nurli manzili sifatida baholanishga loyiqdur.

Ogahiyning qayd etishicha, Olloquli Muhammad Bahodirxon vafot etgan paytda, kichik o'g'li Muhammadaminxon Xivada, uning huzurida edi. Otasi vafot etgach, Muhammad Aminxon o'sha paytda Hazorasp hokimi vazifasini bajarayotgan akasi - Rahimqulixonga «otasi vafotining axbori va tez kelmaganining asrori uchun qosidai sarsarmisolini, ya'ni choparni jo'natadi. Rahimqulixon o'sha kuniyoq tezlik bilan Xivaga etib keladi. Ta'ziya marosimi ado etilgach, barcha amirlar, ulamolar, shariat peshvolari «hazrati zillullohiy», ya'ni Rahimqulixon huzuriga yig'iladilar va uning xorazmshohlik taxtini qabul etishini so'raydilar. Shunda Rahimqulixon shohlikka rag'bati yo'qligi, bu dunyoning o'zi bevafo ekanligi, shohlikning «no'shi bir bo'lsa, nishi ming», ya'ni rohati bir bo'lsa, tashvishi ming ekanligi to'g'risida so'zlaydi.

Majlis ahli payg'ambar alayhissalomning bir soatlik adolat bir umrlik nafl ibodatdan afzal ekanligi to'g'risidagi hadisi shariflarini keltirib, Rahimqulixonni

shohlik taxtini qabul etashga va adolatli siyosat yuritib, Tangri taoloning roziligini topishga da'vat etadilar.

Ogahiyning qayd etishicha, «Chun arkoni davlat va umaroyi ziynatshavkatning ilhoh va mubolag'asi haddu g'oyatdin o'tdi, lojaram, hazrat zilullohiy kamoli karam-din ul jamoaning royin sindurmay va siynai iltimoslariga dasti rad urmay, saltanat amri xatirin qabul etib, hamul kechakim, chahorshanba tuni erdi, namozi shom hangomi niqizo topgandin so'ngkim, xilofat tojin g'ushai kulohig'a urdi va xorazmshohlik niginin angushti iqtidorig'a solib, jahonbonlig' zamomin qabzai ixtiyorig'a oldi»¹⁹.

Ogahiyning Rahimqulixon to'g'risidagi yozganlari ba'zilarga mubolag'ali tuyulishi ham mumkin. Lekin «tab'ig'a bocha bilikni kashf qilgan», ko'nglida Haq taolo ishqi jo'sh urgan, bu dunyoning foniy ekanligi, imtihon dunyosi ekanligini yurakdan his qilgan ma'rifatli hukmdorning shunday yo'l tutishi minba'd taajjublanarli emas.

Tarixni o'rganmokdan murod-saboqdir. Hazrat Navoiy ta'birlari bilan aytganda, «Ne ishdin mamlakat obod, qayu ishdin ulus barbod bo'lgan»ligini tafakkur ko'zgisida ko'rib, ibrat olingandagina, bu murod hosil bo'ladi. Aks holda, u ibrat darsi emas, zalolat, adashishlik asosiga aylanishi mumkin.

Shu jihatdan qaralganda ham «Zubdat-ut-tavorix» asarining axamiyati katta. Asarda Xiva va Buxoro xonliklari o'rtasidagi o'zaro nizolar, qonli urushlar va ularning og'ir oqibatlari haqida ham mufassal ma'lumotlar berilgan.

Ogahiy har bir fikrini Qur'oni Karim oyatlari va payg'ambar alayhissalom hadislari bilan dalillaydi, iymonsizlik, fosiqlik, e'tiqodsizlikning oqibati xorlik ekanligini hujjatlar vositasida takror va takror ta'kidlaydi.

«Zubdat-ut-tavorix» tarixiy asar bo'lsa-da, yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan. Asardagi voqea-hodisalar xoh nasrda bayon etilgan bo'lsin, xoh nazmda ifodalangan bo'lsin, muallifning nuqtadonligi, yuksak fasohat sohibi ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir misol Eron jihodiga otlangan Rahimqulixon haqida so'zlar ekan, muarrix uning «lashkari mahsharnizom»i

¹⁹ Огахий. Зубдат ут-таворих. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. – Тошкент: 1978. – Б.31.

otlarining tuyog'idin chiqqan g'uborni «falaki davvor diydai intizorig'a qilgan»ligi tasvirini o'quvchi ko'z o'ngida shundoqqina gavdalantiradi. Bunda muarrix jihodning nechog'lik buyuk ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash barobarida badiiy so'zning qudratini yana bir marta aytib o'tadi.

Yoki, muallif bir o'rinda quyoshning chiqishi holatini «oftobi jahontobning shohsuvori tezraftori mashriq marhalasidin chiqib, falak maydonining qat'ig'a javlon ko'rguzdi» tarzida tasvirlasa, boshqa bir o'rinda «quyosh xoqoni mashriq shabistonidin chiqib, falak maydoniga nur yakronin surdi» shaklida, yana bir joyda esa «xurshidi jahontob Jamshidi mashriq ishratxonasidin chiqib, falak saydgohi sari ravon bo'ldi» tarzida, ya'ni har bir o'rinda hikoya qilinmoqchi bo'lgan voqeaga mos, tamoman yangicha tasvir topadi. Binobarin, birinchi tasvirda Rahimqulixonning jihodga otlangani to'g'risida so'zlanib, quyoshning chiqish holati ham «falak maydonining qat'ig'a javlon ko'rguzdi» tarzida jihodga uyg'unlik kasb etdi. Ikkinchi tasvir xon lashkarlarining fasod ahli ustiga yurish qilishi holatiga tegishli bo'lsa, uchinchi tasvir xonning o'z a'yonlari bilan ovga jo'nayotgan holatiga mos.

Shu birgina misolning o'ziyoq ko'rsatib turibdiki, asarda tabiat tasviri bilan voqealar mohiyati ajib bir uyg'unlik kasb etgan va bu mutanosiblik asarning jozibadorligini, yuksak badiiy salohiyatini ta'minlagan.

«Zubdat-ut-tavorix»da mumtoz nasrdagi saj' san'atidan nihoyatda mahorat bilan foydalanilgan. Bu bilan muarrix matnning serjoziba, she'r kabi ravon bo'lishiga erishgan. Masalan: «Ziyofat lavozimining intihosi va aqlu shurb marosimining inqizosidin so'ng hazrati xoni mag'fur va hazrati zillullohiy savlati tamom va umaroyi sohib ehtirom bila otlanib, otchopar tomoshosiga chiqtilar. Va qir ustida devnajod va sarsarnihod otlarni yorishturub, rustamquvvat va filhaybat pahlavonlarni kurash tutturub, oti o'tgan sayslarni va harifin yiqitgan pahlavonlarni xazinai ehvondin nukudi farovon in'om qilib, dunyodini mustag'niy etdilar»²⁰.

²⁰ Огахий. Зубдат ут-таворих. Асарлар. VI жилдлик. V жилд. – Тошкент: 1978. – Б.104.

Matndagi soʻzlar qofiyasining nihoyat darajada uygʻunligi (lavozimi-marosimi, intihosi-inqizosi, savlati tamom-sohib ehtirom, devnajod-sarsarnihod, rustamquvvat-filhaybat, yorishturub-kurash tutturub) asar muallifining badiiy mahoratiga dalildir.

«Zubdat-ut-tavorix»da keltirilgan sheʼrlar-baytlar, masnaviyalar, qasidalar, avvalo, asarning badiiy barkamol boʻlishini taʼminlagan boʻlsa, ikkinchidan, uning taʼsir kuchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

«**Jomiʼ ul- voqeoti sultoni**». Bu tarixiy asarning ikkita qoʻlyozmasi mavjud. Biri Sankt-Peterburgda, ikkinchisi Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti qoʻlyozmalar xazinasida saqlanadi.

«Jomiʼ ul-voqeoti sultoni»da Xorazmda Muhammad Aminxon hukmronlik qilgan davr (1846-1855) da roʻy bergan voqealar bayon etiladi.

Ogahiy Rahimqu'lixon saltanati davriga bagʻishlangan «Zubdat-ut-tavorix» asarini yozib tugatgach, uni Muhammad Aminxonga taqdim etadi. Oʻz navbatida, yangi hukmdor Ogahiyga oʻz davri voqealari toʻgʻrisida asar yozish vazifasini yukladi. Bu haqda muarrix bunday yozadi: «Soʻngra bu kitobim yozishgʻa boshladim va uni «Jomiʼ -ul-voqeoti sultoni» deb atadim.

Nazm:

*Chunki bu nusxaga ilik urdum,
Ibtido qilgʻali qalam surdum.
Ot qoʻyar vaqtida dedim oni
«Jomiʼ ul-voqeoti sultoni»²¹.*

Muhammad Aminxon 1854 yilda vafot etadi. Undan keyin Xiva taxtiga oʻgʻli Sayyid Abdulloxon oʻtiradi. Koʻp oʻtmay, u ham turkmanlar tomonidan oʻldiriladi. Umuman, Xiva saltanati tarixidagi bu davr oʻzaro toju taxt uchun talashuvlar, xunrezliklar, fitna-fasodning avj olgan zamoni hisoblanadi. Sayyid Abdullodan soʻng Xiva taxtiga kelgan Qutlugʻ Murod ham mamlakatda tinchlik oʻrnatishga muvaffaq boʻla olmaydi.

²¹ Огахий. Жомий ул-воқеоти султоний. Асарлар. VI жилдлик. VI жилд. – Тошкент: 1980. – Б.7.

Xorazm xonlarining xos amirlaridan bo'lgan Muhammad Niyozbiy ham mazkur notinchlik holatidan foydalanib, taxtni egallashga harakat qiladi. U qabih maqsadini amalga oshirish uchun turkmanlar bilan til biriktiradi. Ogahiy «Jomi' ul-voqeoti sultoniy»da bu haqda bunday ma'lumot beradi: «..turkmanlarga va'da ettikim, agar sizlarning yordamingiz bilan saltanat menga etushsa, qilg'an xizmatlaringiz uchun uch kun muddatgacha shahar xalqining asbob va nuqud, mol va ashyosin g'orat va toroj qilurg'a ruxsat berurman, balki barcha ishda sizlarni sohib ixtiyor qilurman»²².

Ko'rinib turibdiki, Muhammad Niyozbiy o'z manfaati yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, bu yo'lda eng ezgu tuyg'ularni qurbon qiladigai kimsa. Yangi xon Qutlug' Murod bilan o'zaro sulh tuzishga kelishgan Muhammad Niyozbiy fursatni g'animat bilib, xonni xanjar urib o'ldiradi.

Ogahiyning yozishicha, xonga suiqasd uyushtirilgandan so'ng vazir Muhammad Ya'qub Mehtar yovmutlarga qarshi qirg'in boshlab yuboradi. Buning natijasida shu qadar ko'p kishi o'lganki, ko'chalar, mahallalar va bozorlar o'likka to'lib ketgan. Xalq bir haftagacha uydan chiqqan olmay, bir-birinikiga borish rasmini unutkan.

«Jomi' ul-voqeoti sultoniy»da Muhammad Aminxon adolatsizliklari bilan boshlangan ba'zi tartibsizliklar shu darajadagi xunrezliklarga olib keldi.

Masalaning yana bir muhim jihatini ta'kidlash lozimki, Ogahiy tarixchi sifatida doimo halol yo'l tutgan. Xorazm xonlarining ijobiy xususiyatlarini aytish barobarida, salbiy jihatlarini ham ochiq bayon etgan.

«**Gulshani davlat**». Bu asarning uchta qo'lyozma nusxasi mavjud. Ikkitasi Sankt-Peterburgda, bittasi O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi SHarqshunoslik instituti xazinasida saqlanadi. Qisqa muddat xonlik qilgan Qutlug' Murodxon o'ldirilgandan keyin Xiva taxtiga Sayyid Muhammadxon keladi. «Gulshani davlat» xuddi shu hukmdorning saltanat davri (1856-1865) voqealari haqida bahs yuritadi. Albatta, mamlakatda notinchlik, fitna-fasod avjiga chiqqan paytda saltanat tepasiga kelgan Sayyid

²² Огахий. Жомий ул-воқеоти султоний. Асарлар. VI жилдлик. VI жилд. – Тошкент: 1980. – Б.78.

Muhammadxon mazkur holatni isloh qilishga, yurtda tinchlik o'rnatishga harakat qildi. Bu yo'lda u ba'zan qat'iy choralar ko'rishga majbur bo'lganligi haqida muarrix bunday yozadi: «Daryoi Amuning suvi taxminan o'ttiz yildan beri Lavdan arnasiga zo'r qilib, ul arna daryoning ko'p suvin tortib, aksari mazra'lar ko'l bo'lib, Ko'hna Urganch qal'asining qiblasidan o'tgan Ko'hna daryo rudxonasigakim, Sharqiroviqqa mavsumdir, yo'l topib, ko'p erlarga borguncha suv joriy bo'ldi. Bo'z erlardan nihoyatsiz ziroatgoh ochildi. Yovmut boshliq aksari turkman tavoyifi ul erlardin g'oyatsiz mahsulot olib, kamoli to'kdikdan tamarrud va tug'yon ishini boshladilar.

Chun mazkur arnadin suv oqmog'i turkmanlarning Xiva xoniga bo'ysunmasligiga sabab bo'ldi, Sayyid Muhammad mazkur arnani bog'latmoq uchun hijriy 1274 (1857-1858 melodiy) yil rabiul-avval oyining to'rtida, panjshanba kuni Hasan Murod qushbegini buyurdi, Qushbegi shu kuniyoq farmonni ijro etishga kirishdi va ko'p kishi bila borib, mazkur arna saqosini o'n kun ichida bog'latdi»²³.

Tarixnavis olim Q.Munirovning Ogahiy tarixiy asarlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida Sayyid Muhammadxonning bunyodkorlik faoliyati, Rossiya bilan olib borilgan diplomatik va savdo-sotiq munosabatlari, xonning ichki siyosat borasidagi ishlari «Gulshani davlat» misolida ilmiy tahlil etilgan.

Bundan tashqari, Ogahiy «Gulshani davlat»da Xivadagi adabiy jarayon to'g'risida ham e'tiborli mulohazalarni bayon qiladi. Jumladan, u bunday yozadi: «Fazilat va ilm egasi Muhammad Nazar ajoyib munshiy va iste'dodli shoirdir. Shirin so'zli shoir Pahlavon Niyozboykim, taxallusi Komildur va zarif shoir Mulla Nurjon laqabi Xolisdur».

Umuman, «Gulshani davlat» asari XIX asr Xiva xonligi tarixi haqida boy ma'lumotlarni o'zida jamlaganligi sababli Turkiston tarixini o'rganishda muhim manbalardan ekanligi bilan g'oyatda qimmatlidir.

«Shohid ul-iqboli Feruz shohiy». Bu asarning yagona qo'lyozma nusxasi ma'lum. U Sankt- Peterburg Sharqshunoslik instituti fondida (inv. S572)

²³ Огахий. Гулшани давлат. Асарлар. VI жилдлик. VI жилд. – Тошкент: 1980. – Б.168..

saqlanadi. Mazkur asarning fotonusxasi Toshkent Sharqshunoslik institutida ham mavjuddir.

«Shohid ul-iqboli Feruzshohiy» Ogahiyning Xorazm xonlari tarixiga bag'ishlangan asarlarining so'nggisi bo'lib, unda Muhammad Rahimxon soniy – Feruzning hukmronlik davri (1865-1910) voqealari xronologik tartibda bayon etiladi. Asar 1872 yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan bo'lib, «Shohidi iqboli Feruziy» nomi bilan ham yuritilgan.

Ogahiyning «Shohid ul-iqboli Feruzshohiy» asari juda kam o'rganilgan. Buning birinchi sababi asarda Xivaning Rossiya tomonidan bosib olinishi bo'lsa, ikkinchi sababi voqealarning haqqoniy va batafsil yoritilishidir. Sobiq sho'ro hukmronligi davrida asardagi Rossiya imperiyasining tajovuzkorona harakatlarini ochiq-oydin aytishga yo'l qo'yilmas edi.

Ogahiyning Muhammad Rahimxon II taxtga o'tirgan 1865 yilda yoshi 56 da edi. Zamonning ne-ne sinoatlarini boshidan o'tkazgan donishmand ustoz yosh xonga bag'ishlab qasida yozadi. Bu asar ilm ahllari orasida «Ogohnoma» nomi bilan mashhurdir.

Muhammad Rahimxon II davri tarixiga bag'ishlangan «Shohid-ul-iqboli Feruziy» asari bo'yicha kelajakda yaratilajak tadqiqotlar bu asar avlodlarga ibrat bo'larli ko'plab hodisalarning mohiyatini ochib, ularning ma'naviy kamolotiga xizmat qilishi shubhasizdir.

Ogahiyning tarixiy asarlari o'zbek tarixnavislik fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Ular O'rta Osiyo tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, Xorazm tarixini tadqiq etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muarrixning asarlari tarixni sevishga, qadrlashga, e'zozlashga da'vat etadi. Chunki, donishmand allomalarimiz ta'kidlaganlaridek, tarixsiz kelajak yo'q.

Muhammad Rahimxon ikkinchi saltanati dastlabki davriga doir manbalar orasida Ogahiy tomonidan yaratilgan «Shohid ul-iqboli Feruziy» ishonchli ma'lumotlar berishi bilan ajralib turadi. Asar saroy va uning atrofida yuz bergan voqea-hodisalarning ishtirokchilari, jumladan, shoir, adib va olimlar hayoti hamda faoliyatini ma'lum darajada yoritishi jihatidan ham qadrlidir.

«Shohid ul-iqboli Feruziy» bevosita ijodkor hukmdorga bag'ishlanganligi bois uning Feruzning surati va siyratiga bag'ishlangan har bir sahifasi adabiy-biografik ahamiyat kasb etadi. Asarda keltirilgan Muhammad Rahimxon hukmronligining dastlabki, mustaqil idora qilingan yillari va bu xon biografiyasining mazkur davriga doir ma'lumotlar etarli o'rganilmagan. Shuning uchun ham, hatto, uning tug'ilgan yilini har xil ko'rsatishlar uchraydi. Jumladan, G.Ismoilova Feruz g'azallarini to'plab nashr ettirgan to'plamga yozgan so'ngso'zida va Davlatyor Rahim hamda Shixnazar Matrasullarning shoh va shoir to'g'risidagi tarixiy-badiiy lavhalarida uning tug'ilgan yili 1844 yil, deb ko'rsatiladi²⁴. Bobojon Tarroh Muhammad Rahimxon boshqa shahzodalar kabi Xivaning Ichkari qal'asidagi Ko'hna ark degan joyida tug'ilganini aytib, sana keltirmaydi. Uning taxtga chiqishi haqida so'zlaganda esa: «O'n sakkiz yoshida Xorazm taxtig'a o'tirg'on»²⁵, - deydi. Bunga ko'ra, u 1846 yilda tug'ilgan bo'lib chiqadi. Bu sana ham aniq emas. Bunday noaniqliklarni boshqa ma'lumotlarda ham kuzatish mumkin.

«Shohid ul-iqboli Feruziy» shoirning tug'ilishi va yoshlik yillari haqida aniq ma'lumotlar beradi. Unda: «Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon...ning humoyun valodati sulton... Rahimquli Muhammad Bahodirxonning muborak zamonida yilon yili sanai hijriya ming ikki yuz oltmish birda... saodatlig' zamon va sharofatlig' avondakim... maymanatnishon vujudining bahori fayzidin jahon bog'i boshdin-ayoq ma'muru obodon va masarratiqtiron qudumining vusuli barakatidin olam ahli ulug'din to kichik masruru shodmon bo'ldilar»²⁶ - deb ko'rsatilgan. Bundagi «maymanatnishon vujudining bahori erdi». «fayzidin jahon bog'i boshdin-ayoq ma'muru obodon... bo'ldilar» ishoralaridan tug'ilish fasli bahor, Navro'zga to'g'ri kelganligini tushunish mumkin. Tarixiy-badiiy lavhalar mualliflari ham Feruzning Navro'z ayyomida tug'ilganini yozadilar. Demak, shoirning tug'ilgan sanasi 1845 yil 21 martga to'g'ri keladi. Asarning Feruz tavalludi haqidagi sahifasida shoir,

²⁴ Исмоилова Г. Сўнгсўз ўрнида.// Муҳаммад Раҳимхон Феруз. Не бўлди, ёрим келмади. – Тошкент: 1991. – Б.56. Раҳим Д., Матрасул Ш. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: 1991. – Б.16.

²⁵ Тарроҳ Б. Хоразм навозандалари. – Тошкент: 1994. – Б.10.

²⁶ Огахий. Шохид ул-икболи Ферузошохий. Асарлар. VI жилдлик. VI жилд. – Тошкент: 1980. – Б.14.

Jahon xurramu xalq xushnud edi,

Yana vaqti milod mas'ud edi,

degan misralari bilan boshlanuvchi bir masnaviy ham yozib, tug'ilish ayyomining bahorga to'g'ri kelganini aks ettiradi.

«Shohid ul-iqboli Feruziy»da keltirilishicha, Feruz valiahdlik davridayok o'z atrofiga shoirlar va olimlarni to'plab, nafis majlislar uyushtiradi: «Va ul hazrat aksar avqot ulamoyi fazilatshior va fuzaloyi fatonatosorga kamoli dindorlig'din bihishtnamudor majlisig'a yo'l berib, ul jamoa bila hamsuhbat bo'lub, masoyili diniyya va mabohisi yaqniya mukomalasi adosidin so'ng tavorix va g'azaliyot kitoblarin aroga solib, kitobxonlig' va ma'nidonlig' sahboyi farahafzosi bila bazmi oliysin qizdurub, ayshu tarab dodin berur erdi»²⁷. Ogahiy Feruzning yoshlik yillarini yana bir masnaviy keltirib, jumladan, shunday tavsiflaydi:

Garchi har fan aro erur mohir,

Lek ko'b she'r ilmida qodir...

Masnaviyda qilib durafshonlig',

Shuarog'a eturdi hayronlig'.

Har g'azalkim, debon mahorat ila,

Lol etib fazl elin iborat ila...

Ogahiyning boshqa tarixiy asarlaridagi xonlarga yondashuvi bilan bu asardagi yondashuvida sezilarli farq bor. Avvalgi xonlarga muallif bir qadar ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi, o'zini ularga juda sodiq, fidoyi qilib ko'rsatishga intiladi. Feruzga nisbatan esa otadek mehribonlik namoyon qiladi. Bu mehribonlik zamirida e'zozlash ham, nasihat ham, nazorat ham, fidoyilik ham bor.

Shoirlarning saroyda turli vazifalarda ishlaganliklari ma'lum. Ularning o'z vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq ma'lumotlar mazkur asarda boshqa amaldorlar faoliyatini yoritish qatorida aks etadi, ulardan farq qilmaydi. Ularning fazilatlar va iste'dodlariga ishoralarni ko'rishimiz mumkin, xolos. Bunday ma'lumotlar nomlari zikr etilgan shoirlarning ilmiy biografiyalarini to'ldirish, jamiyatda tutgan maqomlari va voqelikka nisbatan shaxsiy pozitsiyalarini

²⁷Ўша асар . – Б.29.

aniqlashga yordam beradi. Koʻhna Xivada mirza, munshiy yoki devon vazifalarida ishlagan kishilarning aksariyati, garchi ulardan devonlar yoki katta adabiy meros qolmagan boʻlsa-da, ijodiy ishlar bilan maʼlum maʼnoda shugʻullanganlar. Ana shunday amaldor ijodkorlardan biri Komil Xorazmiydir.

Maʼlumki, koʻpgina zamondoshlari asarlarida Komilning ismi (Muhammadniyoz) Pahlavon Niyoz sifatida zikr etiladi. «Shohid ul- iqboli Feruziy»da ham u xuddi shunday nom bilan tilga olinadi. Asarda uning ijodidan namuna keltirilmasa-da, uning amaliy faoliyatidan bu sifati maʼlum boʻladi.

Asarda berilayotgan materiallarning yana bir muhim jihati ularda Ogahiy hasbi holining aks etishidir. Qoʻlyozmaning juda koʻp oʻrinlarida muallif oʻz kayfiyatidan ham hikoya qiladi. Umuman, asarda adabiy muhit mavzusi nazarda tutilmagan boʻlsa-da, unda bu mavzuga doir maʼlumotlar aks etadi.

2.2. Bayoniyning tarixiy asarlari

Xorazm tarixnavisligini Abulgʻozi Bahodirxon, Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiylardan soʻng davom ettirgan ijodkor Muahmmad Yusuf Bayoniydir. Shoir hayotiy faoliyati va madaniy merosining katta qismini uning tarixiy asarlari tashkil etadi. Bayoniyning tarixiy asarlari uning nasriy merosi hamdir. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» asarlari muallifning muarrixlik salohiyatidagina dalolat bermaydi. Ularni XIX asr oʻzbek nasri namunalari sifatida oʻrganish ham muhimdir. Bayoniyning tarixiy asarlarini oʻrganish shoirning adabiy-ijtimoiy muhitini aniq tasavvur qilishimizga, badiiy asarlaridagi fikr-gʻoya, obraz ijodiy takomili, ruhiy tovlanishlarining hayotiy asoslarini toʻgʻri idrok etishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, Bayoniyning solnomalarining tarixiy-adabiy qimmatini ham ochiladi. Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmaning boshi Abdulgʻozi Bahodirxon, Munis, Ogahiylar turadi. Ulardan qolgan muqaddas tarix kitoblarining qimmatini juda baland. Bularga Markaziy Osiyo tarixining zukko bilimdoni V. V. Bartol'd yuqori baho berib, ulargacha bu qadar mukammal tarix bitilmaganini taʼkidlaydi.

Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" hamda "Xorazm tarixi" nomli asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini o'rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy o'z salafлари izidan borib, badiiy ijod bilangina shug'ullanib qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan tarixiy asarlardagi voqealarni qaytadan yozdi, to'ldirdi, o'z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini bunyod etdi.

«Xorazm tarixi» muqaddimasidan ma'lum bo'lishicha, asar Xorazm inqilobidan so'ng yozilgan: «Endi bu kengchilik va farovon zamonda Xorazm xalqi zolimlarning zulmlaridan mutlaq qutuldilar va ozod bo'ldilar. Endi tinchlik bilan bu kitobni avvaldan boshlab yozaman. Undagi xonlarga hush keladigan ortiqcha so'zlarni, hushomadgo'yliklarni olib tashlab, zolimlardan qo'rqib ayta olmagan so'zlarni rostlik bilan yozaman»²⁸. Bayoniyning o'zi ta'kidlashicha, «Xorazm tarixi» 16 bobdan iborat bo'lgan. Lekin asarning sakkiz bobigina bizgacha yetib kelgan. Bu asar hozirgi alifboda nashr etilmagan.

1911 yilda boshlanib, 1913 yilda yozib tugatilgan "Shajarayi xorazmshohiy" asari esa yaxshi saqlangan. Shuning uchun Xorazm tarixiga bag'ishlangan asarlarda, ko'pincha, "Shajarayi xorazmshohiy" ga murojaat qilinadi.

Tarixshunos olim Q. Munirov ta'kidlashicha, "1873 yildan boshlab 1914 yilgacha Xorazmda bo'lgan tarixiy voqealar Bayoniy tomonidan yozilgan, "Shajarayi xorazmshohiy" asarining qiymati ham, asosan, ana shunda"²⁹. Shuning uchun, Bayoniy yashab ijod etgan tarixiy davr va adabiy muhitni tadqiq etishda, asosan, shu asarga suyaniladi.

Bayoniy asarlaridagi ma'lumotlarning ishonchliligiga muallifning o'z kafolati bor: "Tarix kitobi yozishning bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan, bo'lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa, uning so'zlari hech bir odamga ma'qul bo'lmaydi"³⁰. Bu so'zlar Bayoniyning tarixnavislikdagi haqiqatga sadoqat qonuniga rioya etganini ko'rsatadi. Uning asarlari shu jihati bilan ham qimmatbahodir.

²⁸ Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўвдир. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995. –Б.21

²⁹ Муниров Қ. Мунис, Огахий ва Баёнийнинг тарихий асарлари, -Тошкент: Фан, 1968. – Б 50.

³⁰ Жумахўжа Н., Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўвдир. –Тошкент: Ўзбекистон, 1995. –Б.22

"Shajarayi xorazmshohiy"dan ko'p olimlar ilmiy tadqiqot ishlarida birinchi manba sifatida foydalanishgan. Tarixchi olimlardan S. P. Tolstov, Ya. G'. G'ulomov, M. Y. Yo'ldoshev, T. Ne'matov, Q. Munirovlar asarning ilmiy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilishdi. Asar haqida O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi M. Y. Yo'ldoshev shunday yozgan: Bayoniyning asari faktik materiallarining ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilishi jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir.

Bu asar tarix fanlari nomzodi Q. Munirovning "Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari" nomli monografiyasida alohida tadqiqot doirasiga kiritildi. Uning O'rta Osiyo tarixini o'rganishdagè ahamiyati ma'lum darajada yoritildi.

Ushbu qiyoslar, baholar "Shajarayi Xorazmshohiy" tarixning naqadar nodir surati ekanligini ko'rsatuvchi mezondir.

Unda 1846 yildan 1873 yilgacha bo'lgan voqea-hodisalar hamda 1873-1914 yillarda sodir bo'lgai tarixiy o'zgarishlar izchil, ta'sirli, ravon tilda, Shoirona uslubda ifodalangan. Asardan o'sha davr Xorazm yurtining ichki va tashqi siyosati, o'zaro feodal urushlari, taxt talashishlar, ularning mash'ui oqibatlarini, bular tufayli xalq boshiga tushgan musibatlar haqida keng ma'lumot olish mumkin. "Shajarayi Xorazmshohiy"da Xiva saroyidagi muhit, boshboshdoqlik, amalparast kishilarning razil qiyofasè ma'lum darajada fosh etiladi. Bayoniy Xiva xonligiga Chor Rossiyasi yurishlarini tasvirlar ekan, Kaufman, Galavanov, Skobelev kabi chor jallodlariga nafrati, mehnatkash, jafokash xalqqa xayrixohligi, achinish tuyg'ulari asarda o'zining hayotiy ifodasini topgan. Shu paytgacha Rossiyaning Markaziy Osiyoga munosabati turlicha talqin etib kelindi. Aslidachi, Markaziy Osiyo Rossiyaga tinch yo'l bilan qo'shib olindimi, Rossiya Markaziy Osiyoni bosib oldimi? Voqeaning chinakam shohidi Bayoniy O'rta Osiyo "tasxir etildi"- zabt etildi, bo'ysundirildi, deb yozadi.

Tarix ilmiga bag'ishlangan ko'p kitoblarda yozilishicha, Rossiyaning Markaziy Osiyoni zabt etishiga asosiy sabab pa'xta bo'lgan ekan. Ayniqsa, Turkiston o'lkasi zabt etilgandan keyin, paxtachilik yanada kuchaytirildi, ko'plab

oziq-ovqat mahsulotlari etishtiriladigan erlarga paxta ekila boshlandi. Bozorlarda narx-navo ko'tarilib ketdi.

Oqibatda, oddiy mehnatkash xalqning ahvoli yanada og'irlasha bordi. Rossiya imperiyasi, Xiva mustamlakaga aylangandan keyin ham, shafqatsizlarcha siyosat olib bordi. Qaramlikning butun musibatlari kambag'al xalq boshiga tushdi. Og'ir mehnat, och-yupunlik elning tinkasini quritdi. har xil soliq to'lashlar (bu davrda o'lponlar turi 25 tadan oshiq edi), qirg'inbarotlar yurtni xonavayron etdi. "...Yana Rusiya askarining kafayi masorifi (armiyaning keyingi yurishlari ta'minoti) uchun Xorazm aholilaridan ikki melyun bila ikki yuz ming manot tazminot olmoqqa qaror berdilar"³¹. Bayoniy yozishicha, bu soliq xalq, ayniqsa, turkman qabilalari budi-shudini sotib, g'arib ro'zg'ori yanada nochor ahvolga tushishiga sabab bo'ldi.

"Shajarayi Xorazmshohiy"da Xorazm xonligidagi amir-amaldordar, mashhur kishilar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asarni o'qib, Muhammad Rahimxon (Feruz)ning shoh, shoir va murakkab bir inson sifatidagi qiyofasini tasavvur etish mumkin. Xorazmda "muddati saltanatlari qirq yetti yilu o'n besh kun"dan iborat (hijriy 1281-1328) Muhammad Rahimxon ma'rifatli shoh edi. U hukmronlik davrida yurtda ilm-fan, adabiyot va san'at rivoj topishiga homiylik qildi. Bayoniy xonning fazilatlari haqida yozadi: "Xon hazratlari bag'oyat mushfiq fuqaro va bag'oyat xayrdo'st kishi erdilar. Ko'p madrasalaru masjidlar bino qildilar"³². "Xiva davlat xujjatlari"da keltirilgan mana bu ma'lumot ham Muhammad Rahimxonning ma'rifatparvarligi haqidagi Bayoniy fikrini tasdiqlovchi bir dalildir: "1872 yilda Xivada Sayid Muhammad Rahimxonning buyruhi bilan 76 hujrali madrasa qurib bitkazildi. Madrasa ixtiyoriga xon tomonidan 2941 tanob vaqf yeri ajratib berildi". Manbalarda bu davrda 1500 ga yaqin maktab va 130 ta madrasa mavjudligi qayd etilgan. Bu ma'rifat dargohlarining bari, shunhasiz, joriy hukumat haramohi va nazoratida bo'lgan. Feruzshoh ma'rifatning muhim yo'li - kitobxonlikka alohida e'tibor bergan,

³¹ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: 1994. – Б.66.

³² Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: 1994. – Б.89

Bayoniyning yozishicha, haftada ikki marta - juma va dushanbada olimlarni yig'ib suhatlar uyushtirar, kitobxonlik oqshomlari o'tkazardi. Xon amaldorlarni, sipohiyarlarni hamkitobxonlikka da'vat etgan.

Bayoniy tarixiy voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va o'z boshidan kechirgandek hikoya qiladi. Ammo voqealar jarayonida tarixchining bevosita aralashgani sezilmaydi. Ehtimol, tarixnavislikning xolislik qonuni shuni taqozo qilgandir.

Bayoniy, adabiy muhitni o'rganishda birinchi navbatda va bevosita "Shajarai xorazmshohiy" asariga murojaat qilishga to'g'ri keladi. "Shajarai Xorazmshohiy" Bayoniy davri Xorazm adabiy muhiti haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Asarda Xorazm adabiyotining Munis, Ogahiy, Tabibiy, Komil, Xusraviy, Komron, Murodiy kabi namoyandalari hayoti va ijodi haqida yangi ma'lumot mavjud. Adabiy manbaalarda uchramaydigan ba'zi nazmiy asar va parchalar turli munosabat bilan keltirilgan. Solnoma Bayoniy hayoti va ijodining bizga noma'lum tomonlarini oydinlashtiradi, Shoir faoliyati haqida ilmda mavjud kemtikliklarni to'ldiradi. Tarixiy voqealar tadriji takomilidan Xorazm inqilobi va Bayoniy inqilobiy she'riyatining hayotiy asosi anglashiladi. Asarni o'qirkanmiz, Shoir yashagan sharoit, otasi, akasi, ko'ngliga yaqin, hamfikir do'stlari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. "Shajarayi Xorazmshohiy" Xorazm xalqining urf-udumlari, marosim-ma'rakalari, etnik sifatlari, til xususiyatlarini o'rganishda hammuhim manbadir.

Bayoniyning otasi Bobojonbek va akasi Yaxshimurodbek haqida "Shajarayi Xorazmshohiy"da quyidagicha ma'lumot o'qiymiz: "Ushbu yilkim, hijratning ming ikki yuz sakson sakkizlanchisi va qo'y yili va sunbulaning avoxiri erdi, xazrati allomayi zamon va olimi ulumi mutadovil va pinhon, ya'ni Bobojonbek ibn Olloberdi To'ra ibn Eltuzarxoni jannatmakon baqo olamida azm etdilar, ayyomi hayotlari oltmish to'rt yil edi. Ul hazrat ilmi sarf va ilmi nahv va ilmi mantiqda yagonayi asr va ilmi hikmatda yaktoyi daqr erdilar va "Kitobi Shabiston" va "Devoni Bedil"ning mug'allaqotlari hallida olamoroylari iqdaku-shod erdi. Lihozo huzuri vofiyassururlari marjii ulamo va fuzalo erdi va tibu ramlu nujumu hisob

fanlarida hambag'oyat mohir erdilar. Rahmatullohi alayh. Ul hazratdin ikki o'g'ul qoldi. Valadi irshodlari sarvari atibbo Yaxshimurodbekdurlar. Ikkilanchisi ushbu faqiri haqiri Bayoniykim, bu huruf roqimidurman"³³.

"Shajarai Xorazshohiy"dan ijodi shu paytgacha deyarli o'rganilmagan Shoir Xusraviy haqida ancha ma'lumot olish mumkin. Bayoniy Iso to'ra ibn Raximqulxon ya'ni Xusraviy 1886 yili sayohatga chiqib ko'p mamlakatlarni sayr etgani, Istanbul, Makka, Quddus shaharlarini ziyorat qilib, 1887 yili Xivaga qaytib kelgani, 1889 yili vafot etgani, undan to'rt o'qil holgani haqida hikoya qiladi. Shu orada uning she'riy iste'dodiga baho berib o'tadi: "Bu sayrlarida manzil-bamanzil borgon erlarida ajoyibotu g'aroyibotdin ne ko'rsalar, kitobat qaydig'a kirguzub bir sayohatnoma bitdilar va onda so'zni iboratoroliq bila bayon etib, balog'atning dodin berdilar. Ne uchunqim, ul hazrat bir fozili suxandon va Shoiri xushbayon erdilarkim, o'zlarin Xusraviy taxallusi bila mutaxallus etib, she'r hamaytur erdilar. Bayt ul-haramning ziyorati shavqida bir qasida aytibdurlar, ushbu bayt andindur. Bayt:

Ey, xush ul davlatki, sa'y aylab safov u Marvda,
Bo'lmoq Ismoyildsk Minoda qurboni haram.

Bu bayt ul qasidaning maqta'idur, bayt:

"Sayri gulshan Xusraviyga kelmasa xush, ne ajab,
Orzu ko'nglidadur gashti biyoboni haram"³⁴.

Ushbu parcha Xusraviyning badiiy iqtidori to'g'risida tasavvur uyg'otish bilan birga, o'zbek mumtoz adabiyotidagi muhim adabiy janr - "Sayohatnoma" Xorazm- adabiy muhitida hammavjudligidan dalolat beradi.

"Shajarayi Xorazmshohiy" bizni Bayoniyning zamondoshi, Shoir Murodiy bilan ham tanishtiradi. Muarrix Murodiyning hayoti va vafoti haqida kuyunib yozadi.

Feruz o'z g'azallaridan birida she'riyatdagi ustoz Muahmmadrizo Ogahiy ekanligini iftihar bilan tilga oladi:

³³Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарай Хоразмшохий. – Тошкент: 1994. – Б.90.
Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарай Хоразмшохий. – Тошкент: 1994. – Б.78

Komil ersam nazm aro Feruzdek, ermas ajab,
Ogahiydur she'r mashq aylarda ustodim mening.

Darhaqiqat, Muahmmad Rahimxon soniy — Feruz juda murakkab tarixiy vaziyatda taxtga ko'tariladi. Muhimi, u ba'zi xonlar kabi saltanat uchun talashib, xunrezlik yo'li bilan taxtga yetishgani yo'q. Uning xon mansabiga ko'tarilishi manzarasi nihoyatda qiziqarli va ibratli. Ya'ni, u demokratik asosda saylangan xonlardan. Hodisaning bevosita guvohi hamda voqeanavisi Bayoniy "Shajarayi Xorazmshohiy"da bu haqda shunday yozadi: «Vaqtekim Sayid Muhammadxoni jannadmakon baqo olamig'a azm ettilar, Hasanmurod qushbegi tamomi umaro va arkoni davlatni jam qilib, Karukli bobo mingboshi bilan Olloberdiboyni Arkning darvozasida qo'yub dedi:- Donista (ishonchli) kishilarni kirguzung, vagarna, hech kishini kirguzmanglar!

Alar darvozaning oldida o'lturdilar. Chun hamma jam bo'ldilar, Amir to'ra dedi: -Ey, umaro va a'yonlar, Bobojon, ya'ni Muhammad Rahim to'ra yoshdur va yurtida parokandalik bordur. Bir korozmuda kishi xon bo'lsa, yaxshi erdi. Bu bobda sizlar ne masalihat berursizlar? Hech kishidan sado chiqmadi. Hasanmurod qushbegi dedi: Ore, bu so'z rostdur. Ammo bizlar davlatning bu xonadondin o'zga tarafga intiqolin xushlamasmiz.

Ul holda Rahmatullo yasovulboshi Amir to'raga qarab dedi: Sizning xon bo'lmoqingiz hech kishiga maqbul ermasdur. Amir to'ra dedi: Kimlarga maqbul emasdur? Yasovulboshi dedi: Bu o'ltirg'on jamoaning hammalariga. Ul holda hamma ittifoq bilan faryod qilib dedilar: Bobojon to'ra xonimizdur! Amir to'ra dedi: Bag'oyat yaxshi bo'ldi. Xonliq Bobojong'a muborak bo'lg'ay.

Ul vaqtda Bobojon to'ra Tangriquli to'raning ayvonida mutamakkin erdilar. Hamma ittifoq bila turub, ko'runushxonag'a kirib, Bobojon to'rani talab etib keltirdilar»³⁵.

Asarda Feruzning taxtga chiqish marosimi ajoyib tarzda tasvirlanadi. Ma'lumki, Muahmmad Rahimxon soniyga qadar Xeva saroyida iste'dodlar jamlangan va bu adabiy njuman sarvari Muhammad Rizo Ogahiy edi. Feruz

³⁵ Мухаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: 1994. – Б.17

o'zigacha tashkil etilgan adabiy muhitga ravnaq bag'ishladi. An'anaga muvofiq, har bir muhim adabiy qutlovlar mushoira vositasida nishonlangan va tarix sahifalariga muhrlangan. «Vaqtekim, Sayidmuhammad Rahim Bahodirxoni soniy sariri saltanatda qaror tutdilar, shuaro va fuzalo xayli juluslari uchun tarixlaru qasidalaru masnaviylar aytib, in'omi shohona va atoyi xusravonalaridin sarshor bo'ldilar. Ul jumladin Ogahiy bu tarixni aytib erdi... va bu masnaviy ham Ogayhiydindir³⁶». Bayoniy anjumanda Ogahiy bir tarix va bir qasida o'qiganini iftihar bilan aytadi va ushbu asarlarning matnini keltiradi. Bu Ogahiyning ustoz ijodkor darajasiga ko'tarilgani va saroyda eng mo'tabar mavqeda turganligini ko'rsatadi.

Xeva adabiy muhitida Muhammad Rahimxon qanday ravnaq bag'ishlaganini ham Bayoniy jonli bayon etgan. "Majmuat ush-shuaro"dek nodir madaniy boylikning muallifi Ahmad Tabibiyga Bayoniy o'z ihlosini hurmat bilan e'tirof etadi. Asardan Tabibiy ijodkor sifatida qanday ishlarni amalga oshirganini, hayot tarzi qanaqa kechganini haqida ham qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Tarixnavislik salohiyati va vazifasi Bayoniyning she'riyatdagi ta'rix janri badiiy imkoniyatlarini ham mukammal o'zlashtirishini taqozo etgan. Bu ta'rixlar ikki jihatdan ahamiyatli. Birinchidan, ular badiiy asar, ya'ni sharq mumtoz adabiyoti janri namunalari sifatida qimmatli. Ikkinchidan, tarixlarning ko'pchiligi Xorazmdagi milliy me'moriy yodgorliklar haqida yozilgan bo'lib, ularni yaratilish tarixini aniqlash bizni zamonamiz uchun juda zarur.

Muallif toponimik ma'lumotlar ham beradi. Bir o'rinda Sultonobod deb nomlangan jamoa haqida gapiradi: "... ko'p bevatanlarga vatan berib va bir oliy masjid bino qildurub, ul erni Sultonobod ismi bila mavsum etdilar"³⁷. Bunga o'xshash dalillar "Shajarai Xorazmshohiy"da anchagina. Bu Xorazm toponimiyasi bilan shug'ullanuvchi kishilar bilan ham, har bir o'quvchi uchun ham qiziqarli.

Geografik tuzilishlar, joylashishlar, shaharlar, ovullar, daryolar haqida hamqida bilan aniq, qiziqarli ma'lumotlar beriladi. Masalan, asarda, Rossiya

³⁶Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарай Хоразмшохий. – Тошкент: 1994. – Б.18

³⁷Мухаммад Юсуф Баёний. Шажарай Хоразмшохий. – Тошкент: 1994. – Б.57

davlatining Turkistonni tasxir etishi - zabt etishi haqida gapiriladi. Shu o'rinda Turkiston hududini to'rt tomondan chegaralab beradi. Asardan Bayoniyning geografik ilmdan ham yaxshigina xabardor ekanligi sezilib turadi.

Muhammad Yusuf Bayoniyning "Shajarai Xorazmshohiy" solnomasi qadim tariximizning mumtoz ko'zgusi bo'lishi bilan birga, XIX asr Xorazm ijtimoiy - madaniy muhitini aks ettiruvchi manba hamdir. U tarix va adabiyotshunoslik ilmiga muayyan aniqliklar kiritishga asos beradi. Shuningdek, asarda ayrim siymolarimiz hayoti haqidagi qiziqarli tafsilotlar bayon etiladi.

XULOSA

Biz bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘zbek adabiyotida tarixiy asarlar yozish an‘anasi O‘rta Osiyo xonliklaridan Xeva xonligida keng ko‘lamda davom ettirildi. Abulg‘ozi Bahodirxon boshlagan ishni XIX asrda atoqli o‘zbek shoirlari va mashhur tarixnavislari Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiy katta mahorat bilan davom ettirdilar. Bu buyuk olim va tarixnavislar Xorazm tarixini yozish bilan bir qatorda, shu sohada ma‘lum maktab ham yaratdilar. Bularning ishini XIX asr va XX asrning boshlarida yashagan taniqli tarixnavis olim va shoir Muhammad Yusuf Bayoniy davom ettirdi. Bu tarixnavislik maktabi namoyandalari faqat Xorazm tarixiga oid asarlar yozish bilan cheklanib qolmay, ko‘pgina tarixiy asarlarni boshqa sharq tillaridan o‘zbek tiliga tarjima qildilar. Shu bilan bir vaqtda, ular tomonidan ko‘pgina adabiy asarlar ham ijod qilindi va tarjima etildi.

2. Xeva xoni va tarixnavis olim Abulg‘ozi Bahodirxon «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» nomli tarixiy asarlarning muallifidir. U o‘z davrining davlat arbobi, lashkarboshisi va atoqli tarixnavisi bo‘lish bilan bir qatorda, tib ilmini yaxshi bilgan va bu borada «Manofe’ul-inson» nomli asar ham yozgan.

3. XVIII asrning oxirgi choragi va XIX asr Xorazm tarixnavisligida alohida o‘rinni egallaydi. Chunki bu davrda atoqli tarixnavis olim va shoir, davlat arbobi, o‘zining butun faoliyati bilan Xorazmda madaniy yuksalishga homiylik qilgan Shermuhammad Munis va uning jiyani Muhammadrizo Ogahiy bu borada qalam tebratdilar va qator tarixiy hamda adabiy asarlar ijod etdilar.

Ulardan biri Munis tarafidan ta’lif etilgan va Ogahiy tomonidan yozib tamomlangan Xorazm tarixini qadim zamonlardan 1825 yilgacha bayon etuvchi «Firdavs ul-iqbol» nomli asardir. Mazkur asar Xorazm tarixini o‘rganishda eng ishonchli manba ekanligi sharqshunos olimlar tomonidan alohida e’tirof etilgan.

4. Shermuhammad Munis iste’dodli shoir, mohir tarjimon, tarixnavis va davlat arbobi bo‘lgan. U mashhur Sharq tarixchilaridan hisoblangan Muhammad Mirxondning «Ravzat us-safo» asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishga

kirishib, 1-jildini va 2-jildining birinchi yarmini tugallashga ulguradi, xolos. Keyinchalik bu xayrli ishni Ogahiy va boshqa ijodkorlar davom ettiradilar.

5. Ogahiy o'z davrining zabardast shoiri bo'lish bilan birga, badiiy adabiyotimiz xazinasini o'lmas tarjima asarlari bilan boyitgan tabarruk zotdir. U o'nlab badiiy va tarixiy asarlarni yuksak mahorat bilan o'zbek tiliga tarjima qiladi. Tarjima asarlari orasida «Ravzat-us-safo», «Zafarnoma», «Nodirnom», «Tabaqoti Akbarshohiy», «Tazkirai Muqimxoniy» kabi nodir tarixiy kitoblar mavjud. Ogahiy o'zining bu tarixiy asarlari bilan Xorazmning yarim asrdan ortiqroq davrini yoritib beruvchi qimmatli tarixiy xronikasini yaratadi va O'rta Osiyodagi tarixnavislik fani taraqqiyotiga qimmatli hissa qo'shdi.

6. O'zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon tarixchi olim sifatida yorqin iz qoldirgan. U «Riyozi ud-davla», «Zubdat ut-tavorix», «Jome ul-voqeoti sultoniy», «Gulshani davlat», «Shohidi iqboli Feruz shohiy» kabi beshta tarixiy asar yozdi. Mazkur asarlarda Ogahiy Xorazm tarixiga doir qomusiy ma'lumotlarni jamlaydi, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va adabiy-ma'naviy hayot manzaralarini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi, tarix saboqlaridan muhim xulosalar chiqaradi.

7. Ogahiyning tarixiy asarlari o'zbek tarixnavislik fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Ular O'rta Osiyo tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, Xorazm tarixini tadqiq etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muarrixning asarlari tarixni sevishga, qadrlashga, e'zozlashga da'vat etadi. Chunki, donishmand allomalarimiz ta'kidlaganlaridek, tarixsiz kelajak yo'q.

8. Xorazm tarixnavisligini Abulg'oz Bahodirxon, Shermuhammad Munis va Muhammadrizo Ogahiylardan so'ng davom ettirgan ijodkor Muahmmad Yusuf Bayoniydir. Shoir hayotiy faoliyati va madaniy merosining katta qismini uning tarixiy asarlari tashkil etadi. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» asarlari muallifning muarrixlik salohiyatidagina dalolat bermaydi. Ularni XIX asr o'zbek nasri namunolari sifatida o'rganish ham muhimdir. Bayoniy tarixiy asarlarini o'rganish shoirning adabiy-ijtimoiy muhitini aniq tasavvur qilishimizga, badiiy asarlaridagi fikr-g'oya, obraz ijodiy takomili, ruhiy tovlanishlarining

hayotiy asoslarini to'g'ri idrok etishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, Bayoniy solnomalarining tarixiy-adabiy qimmatini ham ochiladi.

9. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy" hamda "Xorazm tarixi" nomli asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini o'rganishda juda nodir manbadir.

Bayoniy o'z salafлари izidan borib, badiiy ijod bilangina shug'ullanib qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan tarixiy asarlardagi voqealarni qaytadan yozdi, to'ldirdi, o'z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini yaratdi. Ayniqsa, kam o'rganilgan XIX asrning oxirgi choragi va XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayot voqea-hodisalariga doir ma'lumotlarning bugungi kundagi ahamiyati beqiyosdir.

10. Umuman, XVII-XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida tarixiy asarlar yozish an'anasi rivoj topdi. Abulg'ozil Bahodirxon, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy va Muhammad Yusuf Bayoniylar tomonidan yaratilgan o'nlab tarixiy asarlar qadim tariximizning mumtoz ko'zgusi bo'lishi bilan birga, XVII-XX asr Xorazm ijtimoiy - madaniy muhitini aks ettiruvchi manbalar hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А.Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият - энгилмас куч. - Тошкент: Маънавият, 2008.
5. Мирзиёев Ш.Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
6. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
7. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

II. MANBALAR:

1. Абулғозий. Шажарайи турк. Тошкент: Чўлпон, 1992.
2. Муҳаммадризо Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик, 5-жилд. –Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
3. Муҳаммадризо Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик, 6-жилд. –Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.
4. Муҳаммад Юсуф. Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий.–Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.

III. ILMIIY-NAZARIY ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
2. Адизова И. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Фан, 2008.
3. Абдуллаева М. «Шажараи турк»да пейзаж. Ўзбек тили ва адабиёти, 2008, 4-сон.
4. Жумахўжа Н. Адизова И. Сўздин бақолироқ ёдгор йўқдур. Тошкент: Ўзбекистон, 1995.
5. Исмоилова Г. Сўнгсўз ўрнида.// Муҳаммад Раҳим Феруз. Не бўлди, ёрим келмади. – Тошкент: 1991.
6. Каримов Ғ., Долимов С. Муҳаммадризо Огаҳий. Сўз боши. Асарлар. 6 жилдлик, 1-жилд. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
7. Комилов Н. Бу қадимий санъат. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
8. Муниров Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийнинг тарихий асарлари. – Тошкент: Фан, 1960.
9. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. –Тошкент: Фан, 1961.
10. Мамадлиева Н. «Шажарайи турк» асари лексикаси ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти, 2007, 3-сон.
11. Маткаримова С. Табибий-тазкиранавис. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Тошкент: 2007.
12. Навоий асарлари луғати. –Тошкент: Фан, 1971.
13. Огаҳийга армуғон. Муҳаммадризо Огаҳийнинг 200 йиллигига бағишланган анжуман материаллари. –Урганч, 2009.
14. Раҳим Д., Матрасул Ш. Шоҳ ва шоир қисмати. – Тошкент: 1991.
15. Рўзимбоев С., Аҳмедов А. «Фидавс ул-икбол»даги адабий жанрлар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 6-сон.

16. Тарроҳ Б. Хоразм навозандалари. – Тошкент: 1991.
17. Ўрозбоев А. «Риёз уд-давла»даги айрим ижтимоий-сиёсий сўзлар таҳлилига доир. Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 6-сон.
18. Шодмонов Н. «Шоҳид ул-иқбол»да Хоразм адабий муҳитига доир маълумотлар. Ўзбек тили ва адабиёти, 2009, 2-сон.